جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

2024-yil 19-iyul
№ 30(30)
www.jadid-media.uz

OYDINLAR

“NOMI QORAQALPOQ ELLARIM BORDIR...”



Xudo bergan har bir millatning ma’naviy borlig‘ini dunyoga tanitadigan so‘z san’atkorlari, alloma shoirlari bo‘ladi. Qoraqalpoq og‘zaki ijodini yozma adabiyoti bilan uyg‘unlashtirib, xalqona she’rlar yozgan Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘li shunday adabiy siymolardan biridir.

(Davomi 5-sahifada).



O‘ZBEKISTON VA QIRG‘IZISTON KO‘P QIRRALI HAMKORLIGIDA YANGI DAVR BOSHLANMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov rafiqasi bilan birga 18-iyul kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi.

Toshkent shahri xalqaro aeroportida ularni davlatimiz rahbari va rafiqasi kutib oldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga ikki mamlakat davlat bayroqlari ko‘tarilib, faxriy qorovul saf tortdi.

Qo‘shnisiga yaxshilik sog‘inib, hamisha tinch bo‘lishini tilagan, yutug‘idan quvonadigan xalqmiz. Onalarimiz tansiqroq biror yegulik pishirsa avval bir devor nariga, hamsoyasiga ilingan. O‘ziga ravo ko‘rganini boshqalar bilan ham bo‘lishgan. Bunda katta hikmat bor.

Ota-bobolarimiz bir ro‘zg‘orning boshqalardan ayro baxtiyor bo‘la olmasligini yaxshi bilgan. Kuchning birlikda ekanligini ta’kidlashlarining ma’nosi ham shunda.

Mamlakatimizning keyingi yillarda qo‘shni davlatlar bilan do‘stona aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishga intilayotgani zamirida ham ana shu ko‘p yillik qadriyat mujassam.

O‘zbekiston Qirg‘iz Respublikasi bilan “bir devor” qo‘shni. Quda-anda, bordi-keldi, oldi-sotdi masalalari o‘ziga xos tarixga ega.

Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov Toshkent shahriga kelgach, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri hamrohligida “Yangi O‘zbekiston” bog‘iga tashrif buyurdi.

Oliy martabali mehmon “Yangi O‘zbekiston” bog‘idagi Mustaqillik monumenti poyiga gul qo‘ydi.

Majmua bilan qisqacha tanishuv asnosida Qirg‘iz Respublikasi delegatsiyasi vakillariga mazkur ansambl mazmuni va me’moriy yechimlari haqida ma’lumot berildi.

Delegatsiya a’zolari majmuada aks ettirilgan allomalar, buyuk sarkarda va jahongirlar, jadid bobolarimizning siymolariga alohida e’tibor qaratdi.

(Davomi 2-sahifada).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING O‘TTIZ UCH YILLIK BAYRAMIGA TAYYORGARLIK KO‘RISH VA UNI O‘TKAZISH TO‘G‘RISIDA

Bundan o‘ttiz uch yil oldin o‘ta og‘ir va murakkab tarixiy vaziyatda qo‘lga kiritilgan milliy istiqlolimiz bugungi kunda ko‘p millatli butun xalqimizni Yangi O‘zbekistonni barpo etishdek buyuk maqsad yo‘lida birlashtirib, yangi yutuq va marralar sari ilhomlantirmoqda.

Aynan mustaqillik tufayli mamlakatimiz suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatga, xalqaro huquqning to‘laqonli subyektiga aylandi. Dunyo bizni yangitdan tanidi va tan oldi. Yer yuzidagi turli davlatlar va xalqlar bilan do‘stlik hamda hamkorlik aloqalarimiz tobora kengayib, yurtimizning xalqaro maydondagi mavqeyi va nufuzi ortib bormoqda.

Ayniqsa, keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli demokratik islohotlar jarayonida mustaqil davlat bo‘lib, dunyoga ochilib yashash, erkin va ozod xalqlar oilasida munosib o‘rin egallab, zamonaviy taraqqiyotga erishish naqadar ulug‘ baxt va sharaf, shu bilan birga, ulkan mas’uliyat ekanini yanada chuqur his etmoqdamiz.

Xalqimizning milliy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan ichki va tashqi siyosat borasidagi tub o‘zgarishlar, erishilayotgan amaliy natijalar xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilmoqda va qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Barchamiz inson qadri oliy mezon bo‘lgan yangi hayot, yangi jamiyat qurish yo‘lida qo‘lga kiritgan zafarlarimizni mustaqil taraqqiyot g‘oyasiga hamisha sodiq, mard va matonatli xalqimizning fidokorona mehnati, aql-zakovati va bunyodkorlik salohiyati mahsuli deb bilamiz va ana shunday olijanob elning farzandlari ekanimizdan cheksiz faxrlanamiz.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik shonli sanasini chinakam umumxalq bayrami, ozodlik va saodat ayyomi sifatida ko‘tarinki kayfiyatda kutib olish hamda mamlakatimizning bugungi taraqqiyot darajasi, yuksalish sur’atlariga munosib tarzda nishonlash maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha respublika komissiyasining (keyingi o‘rinlarda – Respublika komissiyasi) tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Respublika komissiyasi (A. Aripov):

bir hafta muddatda “Bir bo‘lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar hamda targ‘ibot-tashviqot ishlari dasturini tasdiqlasin. Mazkur dastur “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, shuningdek, “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” bo‘yicha qabul qilingan davlat dasturi bilan uyg‘un holda tayyorlansin;

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayrami (keyingi o‘rinlarda – Mustaqillik bayrami) Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida, shuningdek, barcha shahar hamda tumanlar, qishloq va ovullarda munosib nishonlanishini ta’minlasin;

hududlarda keng aholi qatlamlari o‘rtasida Mustaqillik bayramiga bag‘ishlangan ma’naviy-ma’rifiy anjumanlar, uch avlod uchrashuvlarini, ochiq muloqot va suhbatlar, adabiy-badiiy kechalar, milliy kino kunlari, sayillar, madaniyat va sport tadbirlari, gastronomik festivallarni samarali o‘tkazish maqsadida **atoqli ilm-fan namoyandalari, madaniyat va san’at arboblari, taniqli sportchilar, keng jamoatchilik vakillaridan iborat targ‘ibot guruhlarini tashkil etsin** hamda ularning aniq reja asosida faoliyat yuritishini ta’minlasin;

Mustaqillik bayramiga bag‘ishlangan barcha tadbirlarning yuqori saviyada tashkil etilishi yuzasidan har bir hudud, vazirlik va idora rahbarlarining hisobotlarini o‘z yig‘ilishlarida muntazam ravishda eshitib borsin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida o‘tkaziladigan asosiy bayram tadbirlarining dasturlarini tayyorlashga yuqori professional mahorat hamda tajribaga ega bo‘lgan ssenariychi va rejissyorlar, shoir va adiblar, bastakor hamda baletmeysterlar, sahna rassomlari, maqom va baxshichilik san’ati vakillari, iste’dodli yosh ijrochilardan iborat ijodiy guruhlar keng jalb etilsin.

(Davomi 2-sahifada).

TAHLIL

YANGI O‘ZBEKISTON: 7 YILDA YETISHGANLARIMIZ



YANGI DAVR MOHIYATI

1991-yilning 31-avgustigacha Yer yuzidagi davlati yo‘q millatlarning biri edik. Davlatga ega bo‘ldik. Uni qurdik. Dunyoga o‘z so‘zimizni aytishga erishdik. Bizni olam tanidi, biz olamni tanidik. Haqiqatni aytganda, bu darajalarga erishish davlatga ham, xalqqa ham oson bo‘lmadi.

2016-yil sentyabridan O‘zbekistonimizda yangi davr boshlandi. Uzoq yillar oliy ta’lim tizimida ishlagan, bir tuman va ikki viloyatni boshqargan, 13 yildan oshiq O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri bo‘lgan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev davlat rahbari bo‘ldi. U mamlakat hayotining katta-kichik barcha masalalaridan har taraflama boxabar edi. Muammolar esa tiqilib ketgan, ularni yechishning mexanizmlari eskirgan yoki tamoman ishlamay qolgan edi. Chigalliklar shunchalar ko‘p ediki, bir masalani yechishga ikkinchisi monelik qilardi. Aniqrog‘i, hamma masala bir kishi orqali bitishi, ammo unga yechimlar haqidagi takliflarni yetkazishning yo‘li murakkablashib qolgan bir zamon edi.

Lekin xalq ertaga yoki indinga emas, aynan bugun baxtli yashashni istardi.

Xullas, hayot yangicha bir siyosatni talab qilardi.

ISLOHOT VA YANA ISLOHOT

“Islohot” – “o‘zgarish” degani. Shuning uchun u – to‘xtovsiz davom etadigan muttasil jarayon. Daryo suvi bir yerda to‘xtab tura olmagani singari, odam ham, kishilik jamiyati ham bir yerda turg‘un qolishga haqli emas. Hayot davom etar ekan, u har kuni, har hafta, har oy, har yil... oldimizga yangi-yangi vazifalarni ko‘ndalang qilib qo‘yaveradi. Ularni ado etish uchun hammamiz yangilanishga majburmiz.

Shu falsafiy mulohazalardan keyin mamlakatimizda keyingi yetti yilda yuz bergan voqea-hodisalarga umumlashma ko‘zi bilan boqilsa, ko‘p narsa oydinlashadi. Lekin buning bitta sharti bor: bu o‘zgarishlarga, avvalo, aynan fuqaro ko‘zi bilan boqish zarur. Chunki, axir, mamlakatdagi o‘zgarishlar amalda fuqaro hayotini yaxshilashga xizmat qilishi kerak-da.

Xo‘sh, shu murakkab vaziyatdan chiqib ketishning qanday yo‘llari topildi?

Keling, mamlakatimizda shu davrda yuz bergan tub burilishlarni bir-bir eslaylik.

(Davomi 3-sahifada).

MUNOSABAT

Turkiy adabiyot quyoshi, ma’naviyat charog‘boni hazrat Alisher Navoiy o‘zining “Saddi Iskandariy” dostonida mamlakatni adolat ila boshqarishni saltanatning qudratini belgilovchi omil sifatida talqin etar ekan: “Kerak lutf-u ehson shior aylasang, Adolat yo‘lin ixtiyor aylasang...” deb ta’kidlagan edi. Darhaqiqat, xalqni rozi qilish maslagini bosh g‘oya qilib belgilab olgan insonparvar siyosatning tayanch ustuni adolat bo‘lmog‘i muqarrardir.



FARG‘ONA TASHRIFI:

KELAJAK UCHUN DADIL QADAMLAR

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz hududlariga tashrifini xalqimiz intiqlik bilan kutadi. Chunki yurtboshining qutlug‘ qadami yetgan manzillar obod, ko‘ngillar shod bo‘ladi, adolat bosh mezon bo‘lgan islohotlarga ishonch mustahkamlanib, keng ko‘lamli o‘zgarishlarga kamarbastalik hissi yanada ortadi. Yaqindan Farg‘ona viloyatiga amalga oshirilgan tashrif ham ana shunday jihatlari bilan alohida ahamiyatga egadir.

Bu galgi safar chog‘ida Farg‘onadagi shahar va tumanlarni yanada rivojlantirishga oid keng ko‘lamli masalalarga alohida e’tibor qaratildi. Ayniqsa, Farg‘ona, Marg‘ilon, Qo‘qon, Quva shaharlarida yirik loyihalarni amalga oshirishga yo‘l ochildi. Ushbu tashrif rekonstruksiya qilinib, yangidan ochilgan Qo‘qon aeroporti bilan tanishishdan boshlandi. Viloyatda ikkinchi yirik shahar hisoblangan Qo‘qonni vodiy darvozasi desak, xato qilmagan bo‘lamiz. Shunday ekan, bu yerda F 320-200 va ATR 72-600 rusumli zamonaviy samolyotlarni qabul qilish imkoniga ega aeroportning ochilishi erkin iqtisodiy zona joylashgan, qadimiy hunarmandchilik rivojlangan va boshqa ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlarga ega bo‘lgan turizm shahri uchun o‘ta zarur edi. Qo‘qon va uning atrofida 300 mingdan ziyod aholi yashaydi. Shahar ichki turizm mehmonlari va tashqi sayyohlar bilan hamisha gavjum. Prezidentimiz ilk bor yirik havo kemasini qabul qilgan aeroportda yaratilgan sharoitlar bilan tanishar ekan, parvozlar sonini oshirish, narx va xizmatlarni qulaylashtirish bo‘yicha muhim ko‘rsatmalar berdi. Endilikda Qo‘qondan Samarqand, Buxoro kabi shaharlarga ham parvoz qilish mumkin bo‘ladi.

Tashrif davomida davlat rahbari Qo‘qon superfosfat zavodi negizida tashkil etilgan “Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals” korxonasida investorlar bilan hamkorlik istiqbollari haqida suhbatlashdi. “Farg‘onaazot” zavodi ham ushbu hamkorlar tomonidan modernizatsiya qilinmoqda. Viloyatdagi zavodlar asosida yagona kimyo klasteri, Qo‘qon mexanika zavodida kimyo texnoparki tashkil etilishi import o‘rnini bosuvchi yangi mahsulotlar ishlab chiqarilishini ta’minlaydi.

Shuningdek, Prezidentimiz Qo‘qon universitetida yaratilgan sharoitlar bilan ham tanishdi.

(Davomi 4-sahifada).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

QARORI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING O‘TTIZ UCH YILLIK BAYRAMIGA TAYYORGARLIK KO‘RISH VA UNI O‘TKAZISH TO‘G‘RISIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)

4. Joylarda Mustaqillik bayramini yuqori saviyada nishonlash maqsadida quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratilsin:

yurtimizda inson qadri, uning huquq va manfaatlari yetakchi o‘rinda turadigan ijtimoiy davlat va xalqparvar jamiyat qurish yo‘lida amalga oshirilayotgan tarixiy ishlar, mehnatkash va bag‘rikeng xalqimizning bunyodkorlik salohiyati bilan erishilayotgan ulkan natijalarning mazmun-mohiyati haqida mahallalar, ta’lim muassasalari, mehnat jamoalarida ma’rifiy uchrashuv va suhbatlar o‘tkazish;

keyingi yillarda mamlakatimizda investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlar uchun imkoniyatlarni har tomonlama kengaytirish, “yashil” va raqamli iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha hayotga tatbiq etilayotgan yirik dastur va loyihalar hamda bu borada qo‘lga kiritilayotgan yutuqlarni aniq hayotiy misollar orqali keng yoritish;

sud-huquq tizimini isloh etish, shahar va qishloqlarimizni obod qilish, mahalla tizimini xalqimizga yanada yaqinlashtirish yo‘lidagi doimiy sa’y-harakatlar va ularning samarasi haqidagi targ‘ibot ishlarini yanada kuchaytirish;

yurtimizda do‘stlik va hamjihatlik muhiti tobora mustahkamlanib, mintaqamizdagi yaxshi qo‘shnichilik, tinchliksevar tashqi siyosat tufayli O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tibori yuksalayotgani, do‘st va hamkorlarimiz safi kengayib borayotganini chuqur tahlillar asosida ko‘rsatib berish;

navqiron avlodga Yangi O‘zbekistonning kelajagi sifatida alohida e’tibor qaratilayotgani, yoshlar bilan ishlash bo‘yicha noyob tizim yaratilishi natijasida ularni zamonaviy kasb-hunarlarga o‘qitish, bandligini ta’minlash, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yurtimizda shakllangan samarali va ta’sirchan tizim mohiyatini ochib berish;

sog‘liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat va san’at, sport sohalarini rivojlantirish, nuroniylar va xotin-qizlarga doimiy g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglik bo‘yicha amalga oshirilayotgan ijtimoiy dasturlar mazmuniga alohida e’tibor qaratish;

davlatimiz mustaqilligi, uning xavfsizligi va hududiy yaxlitligining ishonchli kafolati bo‘lgan O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining harbiy va jangovar qudratini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlarni keng targ‘ib etish;

Mustaqillik bayrami munosabati bilan keksa avlod vakillarini, xususan, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylarini har tomonlama e’zozlash, “Mehribonlik”, “Saxovat” va “Muruvvat” uylarida yashayotgan shaxslar, ijtimoiy himoya daftarlariga kiritilgan hamda ko‘makka muhtoj insonlarning holidan xabar olish, ularga moddiy va ma’naviy yordam berish bilan bog‘liq xayriya tadbirlarini o‘tkazish;

Vatanimizning milliy istiqloli, xalqimiz ozodligi uchun kurashib, shu yo‘lda jon fido etgan, mustabid tuzum davrida siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan ota-bobolarimizning xotirasini yod etish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

5. Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov):

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda **bir hafta muddatda** Toshkent shahrida Mustaqillik bayramiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan teatrlashtirilgan konsert tomoshasining dasturi va ssenariysini ishlab chiqsin hamda uni yuksak g‘oyaviy-badiiy saviyada tayyorlash choralarini ko‘rsin;

Badiiy akademiya, Yozuvchilar uyushmasi, Jurnalistlar uyushmasi bilan birgalikda **“Ona diyor – ranglar jilosida”, “Vatan uchun yashaylik!”, “Eng ulug‘, eng aziz”** kabi an’anaviy ko‘rik-tanlovlarni yuqori darajada o‘tkazishni ta’minlasin;

Kompozitorlar va bastakorlar uyushmasi, Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda yurtimiz istiqlolini tarannum etuvchi eng **yaxshi qo‘shiq va musiqa asarlari** tanlovlarining yakuniy bosqichini o‘tkazsin;

mazkur tanlovlarning g‘olib va sovrindorlarini Mustaqillik bayrami arafasida e’lon qilish va ularni tantanali ravishda taqdirlash choralarini ko‘rsin.

6. Belgilab qo‘yilsinki, o‘tkaziladigan bayram tadbirlari:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda – tegishli mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hamda jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari hisobidan;

Toshkent shahrida – Respublika komissiyasi tomonidan tasdiqlangan xarajatlar smetasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjeti va Toshkent shahar mahalliy byudjeti mablag‘lari hisobidan teng ulushlarda moliyalashtiriladi.

7. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, “Dunyo” axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Mustaqillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari O.Q.Abdurahmonov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Sh.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 18-iyul

O‘ZBEKISTON VA QIRG‘IZISTON KO‘P QIRRALI HAMKORLIGIDA YANGI DAVR BOSHLANMOQDA

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)

Shundan so‘ng Ko‘ksaroy qarorgohida Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovni tantanali kutib olish marosimi bo‘ldi.

Qarorgoh oldidagi maydonda davlat bayroqlari ko‘tarildi va faxriy qorovul saf tortdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oliy martabali mehmonni samimiy kutib oldi va shohsupaga taklif etdi. Harbiy orkestr ikki davlat madhiyalarini ijro etdi.

Yetakchilar faxriy qorovul safi oldidan o‘tib, rasmiy delegatsiyalar a’zolarini qutladilar.

Rasmiy kutib olish marosimidan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning tor doiradagi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuvda ikki mamlakat hamkorligining dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari oliy martabali mehmonni samimiy qutlar ekan, keyingi yillarda birgalikdagi sa’y-harakatlar tufayli uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan ko‘p qirrali hamkorlikni tubdan kengaytirish uchun yaxshi zamin yaratilganini alohida ta’kidladi.

Parlamentlar, hukumatlar, tashqi siyosat va tarmoq idoralari darajasidagi muloqotlar natijadorligini oshirish, xalqaro va mintaqaviy maydonlar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon savdo tashkiloti, mintaqa davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari, “Markaziy Osiyo plyus” formatlari doirasida o‘zaro qo‘llab-quvvatlashni davom ettirish zarurligi ta’kidlandi.

Hamkorlikning yangi iqtisodiy kun tartibini shakllantirish muhimligi qayd etildi.

Transport va energetika infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha yangi loyiha takliflari ko‘rib chiqildi.

Prezidentlar hududlararo hamkorlikni, jumladan, Chegaraoldi viloyatlar hokimlari kengashi doirasida yanada kengaytirish muhimligini ta’kidladilar.

Shuningdek, qishloq va suv xo‘jaligi, ekologiya, xavfsizlik va boshqa sohalarda o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Davlat rahbarlari mintaqaviy kun tartibidagi tomonlarni qiziqtirgan masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov muzokaralarni ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida kengaytirilgan tarkibda davom ettirdilar.

Mazkur sammitga tayyorgarlik doirasida Hukumatlararo komissiya yig‘ilishi, biznes forumi, Rektorlar forumi, Avlodlar muloqoti va qator madaniy tadbirlar muvaffaqiyatli o‘tkazilgani ta’kidlandi.

Savdo, sanoat kooperatsiyasi, energetika, transport, qishloq va suv xo‘jaligi, xavfsizlik, madaniyat va boshqa muhim yo‘nalishlardagi hamkorlik natijalari tanqidiy tahlil qilindi.

Muzokaralar davomida tomonlar parlamentlar, hukumatlar, vazirliklar, idoralar va hududlar, ishbilarmonlar, ekspertlar va jamoatchilik darajasida faol aloqalarni davom ettirishga kelishib oldilar. Davlatlararo kengash tuzishga qaror qilindi.

Xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar, jumladan, BMT, ShHT, Turkiy davlatlar tashkiloti, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi va boshqa ko‘p tomonlama maydonlar doirasida yaqin hamkorlikni davom ettirish zarurligi ta’kidlandi.

Tovar ayirboshlash hajmini ko‘paytirish, eng avvalo, import o‘rnini bosish dasturlari va kooperatsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha aniq chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Shu maqsadda tashrif davomida o‘zaro savdo hajmini oshirishga qaratilgan dastur qabul qilinmoqda. Bundan tashqari, yaqin yillarda 2 milliard dollar ko‘rsatkichiga chiqish uchun poytaxtlarda savdo uylari tashkil etiladi, eksport-import shartnomalari to‘plami shakllantiriladi, eksportoldi moliyalashtirish vositalari joriy etiladi, qishloq xo‘jaligi va chorvachilik mahsulotlarini tezkor tashish bo‘yicha “yashil yo‘lak” ishga tushiriladi.

Sanoat kooperatsiyasi doirasidagi joriy loyihalar portfeli 300 million dollarga yetgani ta’kidlandi. Kuni kecha bo‘lib o‘tgan biznes forumi doirasida energetika, logistika, elektrotexnika, to‘qimachilik, agrosanoat va boshqa tarmoqlarda savdo shartnomalari va investitsiya bitimlarining yangi to‘plami qabul qilindi.

Bunday loyihalarni ilgari surish uchun O‘zbekiston – Qirg‘iziston jamg‘armasining ustav kapitali 200 million dollargacha oshiriladi.

Energetika sohasidagi hamkorlik strategik yo‘nalish etib belgilandi.

Qambarota GES-1 qurilishiga doir bitimni tez fursatda imzolash va loyihaning amaliy bosqichini boshlash muhimligi qayd etildi. Shuningdek, ikki mamlakat salohiyatini hisobga olgan holda kichik gidroenergetikani rivojlantirish bo‘yicha kompleks hamkorlik dasturi tayyorlanadi.

Mintaqada transport bog‘liqligini mustahkamlash bo‘yicha birgalikdagi sa’y-harakatlarni faollashtirish zarurligi ta’kidlandi.

“Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston” temir yo‘lini qurish bo‘yicha strategik loyiha to‘g‘risidagi uch tomonlama bitim imzolangani bu borada tarixiy voqea bo‘ldi.

Uchrashuvda istiqbolli transport loyihalari ham ko‘rib chiqildi.

Ikki mamlakat hududlari savdo-iqtisodiy hamkorlikning haqiqiy drayverlari ekani ta’kidlandi. Shu ma’noda, Bosh vazirlar raisligidagi Chegaraoldi viloyatlar hokimlari kengashi doirasida faol aloqalar davom ettiriladi.

Hududlar delegatsiyalarining o‘zaro tashriflari jadvalini tayyorlash va qo‘shma “yo‘l xaritalari”ni yangilashga kelishib olindi.

Qishloq xo‘jaligi o‘zaro hamkorlikning muhim yo‘nalishidir. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini birgalikda yetishtirish, intensiv bog‘lar va agroklasterlar tashkil etishni nazarda tutuvchi agrokooperatsiya dasturi amalga oshirilishi qayd etildi.

Madaniyat, yoshlar, turizm, ta’lim, fan va sport sohalarida faol almashinuvlar davom ettiriladi.

Kelgusi yillarga mo‘ljallangan madaniy tadbirlar taqvimini tayyorlashga kelishib olindi.

Yig‘ilishda Bosh vazirlar o‘rinbosarlarining hisobotlari va savdo-iqtisodiy hamkorlik yuzasidan aniq takliflari tinglandi.

Muzokaralar yakunida davlat rahbarlari qo‘shma “yo‘l xaritasi”ni tayyorlash va erishilgan kelishuvlarni samarali amalga oshirish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha topshiriq berdilar.

Ikki tomonlama muzokaralar yakunlangach, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov yirik kooperatsiya loyihalarini ishga tushirish marosimida ishtirok etdilar.

Jumladan, Farg‘ona va Namangan viloyatlarida umumiy quvvati 400 megavatt bo‘lgan ikkita quyosh elektr stansiyasi qurilishiga start berildi. Ushbu stansiyalarda ishlab chiqariladigan elektr energiyasi Qirg‘izistonga yetkazib berilishi ko‘zda tutilgan.

Chuy viloyatida zamonaviy yengil avtomobillar va tijorat texnikalari ishlab chiqarish zavodi ishga tushirildi. Xususan, u yerda “Kobalt”, “Oniks” va “Treker” rusumli yengil hamda yuk avtomobillari yig‘iladi.

Shuningdek, Qora-Balta shahrida tikuv-trikotaj mahsulotlari va mato ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Korxonaga zamonaviy texnologik uskunalar yetkazib berilib, o‘rnatildi.

O‘zbekiston va Qirg‘iziston Prezidentlari ushbu loyihalar mamlakatlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilishiga ishonch bildirdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov o‘rtasida bo‘lib o‘tgan samarali muzokaralar yakunida qator ikki tomonlama hujjatlar qabul qilindi.

Davlat rahbarlari keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish va kengaytirish to‘g‘risida Qo‘shma bayonotni imzoladilar.

Tashrif davomida 16 ta hujjat imzolandi, jumladan:

– Qirg‘iz Respublikasining Issiqko‘l viloyati hududida joylashgan kurort-hordiq xo‘jaligi obyektlari bo‘yicha hukumatlararo bitim;

– Fuqarolarning o‘zaro kelib-ketishlari to‘g‘risidagi hukumatlararo bitimga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida bayonnoma;

– O‘zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishi bo‘yicha ikki tomonlama muzokaralarni yakunlash to‘g‘risida bayonnoma;

– Qurilish faoliyati sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bayonnoma;

– Mehnat, aholi bandligi va migratsiya sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bayonnoma;

– Madaniyat va san’at sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bayonnoma;

– Davlat xizmati sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bayonnoma;

– 2024-2030-yillarda o‘zaro savdo hajmini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi;

– 2024-2026-yillarda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi;

– 2024-2026-yillarda qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat ta’minoti sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”;

– 2024-2026-yillarda Toshkent va Bishkek shaharlari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti hamda Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik tashabbuslar milliy instituti o‘rtasidagi memorandum va boshqalar.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov ommaviy axborot vositalari vakillari uchun bayonot berdilar.

O‘zbekiston rahbari Qirg‘iziston Prezidentining davlat tashrifi tarixiy voqea bo‘lgani va mamlakatlarimiz ko‘p qirrali hamkorligida yangi davrni boshlab berganini ta’kidladi.

Bu galgi sammitga birgalikda jiddiy tayyorgarlik ishlari olib borilgani qayd etildi. Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig‘ilishi, biznes forumi, Rektorlar forumi, Avlodlar muloqoti samarali o‘tdi. Shu kunlarda mamlakatimiz hududlarida Qirg‘iziston madaniyati kunlari o‘tkazilmoqda.

Har doimgidek ochiq, konstruktiv va do‘stona ruhda o‘tgan bugungi muzokaralar yakunlari katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Kelgusida o‘zaro hamkorlikni yanada yuqori bosqichga ko‘tarish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish va kengaytirish to‘g‘risidagi qo‘shma bayonot tashrifning asosiy siyosiy hujjati bo‘ldi.

Prezidentlar raisligidagi Davlatlararo kengash tuzish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Yetakchilar sanoat kooperatsiyasida, eng avvalo, ikki mamlakat iqtisodiyotining bir-birini to‘ldiradigan tarmoqlarida yangi o‘sish nuqtalarini yaratish masalalariga alohida to‘xtaldilar. Bular energetika, avtomobilsozlik, transport va logistika, elektrotexnika, to‘qimachilik, agrosanoat va boshqa tarmoqlardagi loyihalardir.

Hududlar o‘rtasidagi tizimli muloqotni kengaytirish muhimligi qayd etildi. Chegaraoldi viloyatlar hokimlari kengashi ishini faollashtirishga kelishib olindi. O‘zaro tashriflar jadvali tayyorlanib, hamkorlik bo‘yicha “yo‘l xaritalari” yangilanadi. Loyihalar portfelini yil yakuniga qadar 1 milliard dollarga yetkazish vazifasi qo‘yildi.

Davlat rahbarlari qishloq xo‘jaligi sohasida yangi imkoniyatlarni belgilab berdilar. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini birgalikda yetishtirish, fyuchers bitimlaridan foydalangan holda intensiv bog‘lar va agroklasterlar tashkil etish shular jumlasidan.

– “Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston” temir yo‘lini qurish strategik loyihasi bo‘yicha uch tomonlama bitim imzolangani tarixiy voqea bo‘ldi, – dedi mamlakatimiz yetakchisi.

Transport yo‘laklarini rivojlantirish sohasidagi yangi loyihalarni o‘rganish uchun ekspertlar guruhini tashkil etishga kelishib olindi.

Kichik gidroenergetika sohasida alohida hamkorlik dasturi tayyorlanishi qayd etildi.

– Qambarota GESi qurilishi to‘g‘risida uch tomonlama bitim qabul qilishni tezlashtirish choralarini ko‘ramiz. Ushbu megaloyiha, shubhasiz, butun mintaqamizning barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladi, – dedi O‘zbekiston Prezidenti.

Madaniyat, yoshlar, ta’lim, fan va sport sohalarida faol muloqot va almashinuvlar davom ettiriladi.

Davlatimiz rahbari sayyohlik almashinuvini rivojlantirish imkoniyatlarini alohida qayd etdi. Ayni paytda Toshkentdan Bishkek va Tomchiga to‘g‘ridan to‘g‘ri aviaqatnovlar yo‘lga qo‘yilgan.

Tashrif davomida O‘zbekistonning Issiqko‘ldagi sanatoriy-kurort majmualari to‘g‘risida bitim imzolandi. Iyul oyi boshida O‘zbekiston tomoni uchta obyektni ishga tushirdi, ular mehmonlarni qabul qilmoqda. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha yangi loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Mamlakatimiz yetakchisi so‘zining yakunida muzokaralar natijalaridan mamnunligini izhor etdi hamda Qirg‘iziston Prezidentining O‘zbekistonga tarixiy tashrifi samaralari hamkorlikni aniq mazmun bilan boyitishga, o‘zaro do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga xizmat qilishiga ishonch bildirdi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg‘iziston Prezidenti Sadir Japarov rafiqalari bilan birga O‘zbekistonda Qirg‘iziston madaniyati kunlari boshlanishiga bag‘ishlangan konsertda ishtirok etdilar.

Ikki mamlakat san’at ustalarining ushbu konserti chuqur tarixiy ildizlar bilan bog‘langan, dini bir, qadriyat va an’analari mushtarak o‘zbek va qirg‘iz xalqlarining ko‘p asrlik do‘stligi ifodasi bo‘ldi.

O‘zbekiston va Qirg‘iziston yetakchilarining irodasi va sa’y-harakatlari tufayli qardosh xalqlar yanada yaqinlashdi, davlatlararo munosabatlar esa keng qamrovli strategik sheriklik darajasiga ko‘tarildi.

Iste’dodli san’atkorlar ijro etgan kuy-qo‘shiqlarda xalqlarimiz madaniyatining boyligi, o‘ziga xosligi va shu bilan birga mushtarakligi o‘z ifodasini topdi.

Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning mamlakatimizga davlat tashrifi davom etmoqda.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O‘zA muxbirlari

Boshlanishi 1-sahifada.

DAVLAT XALQQA XIZMAT QILISHI KERAK

Davlat rahbari tarafidan *“O‘zbekistonimizning buyuk kelajagini xalqimiz bilan birgalikda quramiz”,* degan shior o‘rtaga tashlandi. “Xalq davlatga emas, davlat xalqqa xizmat qilishi kerak”, deyildi. Davlat xalqni eshita boshladi. Xalq qabulxonalari tashkil etildi.

Ammo bu gaplar so‘z bilan emas, amal bilan joriy etilsagina samara berar edi. Shunday qilindi ham.

PUL SIYOSATI

Esingizda bordir, oyliklarimiz plastik kartaga o‘tkazib berilardi-yu, hamma joyda ham plastik karta orqali savdo qilish imkoniyati yaratilmagan edi. Hatto banklarda navbatda turib, maoshimizning muayyan qisminigina naqd qilib olar edik. Qayerda yetishmovchilik, taqchillik bo‘lsa, o‘sha yerda jinoyatchilik tomir ota boshlaydi. Plastik kartadagi haloldan halol maoshingizni ustiga pora berib naqd qilib olishga to‘g‘ri keldi ham. O‘zbek so‘mini AQSh dollariga almashtirish-ku muammoning muammosi edi.

Hozir bankka boring, plastik kartangizdagi pulingizni, xohlang, naqd qilib beradi, xohlang, dollarga aylantirib.

TASHQI SIYOSAT

Qizingizga sovchi kelmoqchi bo‘lsa, avval mahallaga elchi yuborib, qo‘ni-qo‘shnilardan surishtirishadi. Hammamiz ham qo‘ni-qo‘shnisi bilan chiqisholmaydigan oiladan qiz olishdan ehtiyot bo‘lamiz. Diplomatiya sohasida bir muddat ishlagan mutaxassis sifatida shuni yaxshi bilamanki, dunyo mamlakatlari ham bir davlat bilan munosabatlarni kuchaytirishda xuddi shunday yo‘l tutadi. Qo‘shnilari bilan yaxshi munosabatlar o‘rnata olmagan davlat bilan hamkorlik qilishdan cho‘chishadi. Yillar davomida shunday bo‘ldi ham.

Shuning uchun davlatimizning keyingi yetti yillik tashqi siyosatida, avvalo, yon qo‘shnilar bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatish birinchi darajali masala qilib qo‘yildi. Bugun buning samaralaridan biz ham, qo‘shnilarimiz ham birday bahramand bo‘lyapmiz.

Shunga qarab, dunyoning uzoq-yaqin boshqa davlatlari bilan munosabatlarimiz darajasi ham ko‘tarildi, ko‘lami ham kengaydi.

“MEN O‘ZBEKISTON FUQAROSI BO‘LDIM!”

Hayot – murakkab jarayon. Taqdiri azalning turli iplari orqali O‘zbekistonimizda yillar mobaynida yashab kelayotgan qanchadan-qancha chet el fuqarolari yoki fuqaroligi yo‘q shaxslar bor edi. Birovi shu yerda o‘qib, ishlash uchun qolib ketgan, boshqasi turmushga chiqib kelgan va hokazo. Hammasi shu yurt, shu xalq bilan birga mehnat qilyapti. Ammo huquqlari cheklangan. Shaxs sifatida g‘ururi toptalgan. Axir, saylovda qatnasholmasa, ayrim boshqa huquqlardan mahrum bo‘lsa, u har qanaqasiga o‘zini kamsitilgan hisoblashga majbur-da. O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini berish amaliyoti yo‘q darajaga tushib qolgan edi. Shu kemtiklikka barham berildi: qanchadan qancha insonlar faxr bilan fuqarolik oldi. Safimiz shu hisobdan ham kengaydi. Nufusimiz oshdi.

Televizorda siz ham ko‘rgandirsiz – ko‘zida sevinch yoshlari bilan: *“Men O‘zbekiston fuqarosi bo‘ldim!”* degan shukrona sizni ham to‘lqinlantirgandir...

“MEN XALQIMNI PAXTAGA QULLIKDAN QUTQARAMAN!..”

Biz birinchi sinfda ikki soat o‘qib, maktab yaqinidagi paxta dalasiga chiqar, mashina terimi payti traktorlar aylanib oladigan chekka joylardagi o‘rilgan g‘o‘zalarning ochilgan paxtalarini terib berar edik. 5–10-sinfligimiz payti esa sentyabrdan dekabrning oxirigacha uch oyga yaqin kattalar qatori ertalabdan kechga qadar paxta terishga majbur edik. Bu holat 2016-yilgacha ham davom etdi. Oxiri demokratik dunyo qattiq bong urdi. Paxtamizni sotib olmay qo‘ydi. Aynan majburiy mehnat, bolalar, ya’ni ishlash yoshiga yetmaganlar mehnatidan foydalanilgani uchun!

Hozir-chi? Bir paytlar paxta yig‘im-terimi mavsumida har kecha shtabda maktab direktorini turg‘azib, uni nega falon o‘quvchi yoki o‘qituvchi dalaga chiqmagani uchun tergashar edi. Endi esa maktab direktorini biror-bir o‘quvchi yoki o‘qituvchining paxta terimi yoki boshqa qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb qilingani uchun tergaymiz.

Bu – katta siyosat, ma’nan keskin, inqilobiy o‘zgarish. Endi o‘quvchilarimiz, Yer yuzining boshqa davlatlaridagi kabi, maktabda to‘qqiz oy ta’lim oladi. Bu – mamlakatning kelajagiga fuqarolarning sog‘lig‘i, bilimli bo‘lib yetishuviga qaratilgan siyosat. Hatto 2023-yilning 30-aprelida umumxalq referendumi orqali qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida o‘qituvchilar haqida maxsus – 52-modda ham kiritildi. Unda shunday so‘zlar bitilgan:

“O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etiladi.

Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi”.

Muhtaram Prezidentimiz: *“Men xalqimni paxtaga qullikdan qutqaraman!”* – degan va’dasida qat’iy turdi.

U birgina shu xizmati bilan ham tarixda qoladi.

AVVALO, BOSHINGDA BOSHPANANG BO‘LSIN!

Shavkat Mirziyoyev xalq orasidan chiqqan, mintaqalarimizdan kelib, poytaxtda yashab qolgan barcha ziyolilar kabi uysizlikning azob-uqubatlarini boshidan kechirgan. O‘zbekistonimizning eng katta, hatto G‘arb davlatlari havas qilib yetolmaydigan bir yutug‘i shundaki, istiqlolning 33 yili mobaynida 21 million kishi yashaydigan mamlakatdan 37 millionli xalqi bor mamlakatga aylandik. Ammo: *“Tuya qancha? Yag‘iri – o‘shancha”*, degan maqolimiz bekorga to‘qilmagan. Ya’ni ko‘payib borayotgan bu aholi ehtiyojlari uchun tinmay yangi uy-joylar bunyod etib borish zarur. Yetti yil burun qurilayotgan uy-joylar miqdori aholi o‘sishi ko‘rsatkichlariga mutanosib emas edi. Bu yil sayin masalani og‘irlashtirib borayotgandi.

O‘zbekistonning yangi rahbari mamlakatda uy-joy qurilishini son va sifat jihatidan tamoman yangi darajaga ko‘tarish masalasini davlat va jamiyat oldiga qo‘ydi va bunda aholining xarid imkoniyatlarini hisobga olish bosh maqsadga aylantirildi. Million-million kishi bundan bahramand bo‘ldi. Statistik ma’lumotlarga tayanib o‘tirishning hech keragi yo‘q: keyingi yetti yilda mamlakatimizda oldingi 25 yilda qurilganidan bir necha karra ko‘p uy-joylar bunyod etildi.

Olmazor bekatidan Sergeli tomon yo‘nalgan yerusti metrosida bir yurib ko‘ring. O‘zingizni tamoman boshqa bir shahardagidek his qilasiz. Chunki metro bo‘ylab ikki tomonda qad rostlagan yangi ko‘pqavatli uylar ko‘zingizni quvnatadi. Shu yetti yilda Sergelida qad rostlagan yangi uylarga bir million aholi ko‘chib o‘tdi. Oxiri ushbu tuman ikkiga ajratilib, Yangihayot tumani ham tashkil qilindi.

TALABALAR MAMLAKATI

Shunday davrlar bo‘ldiki, oliy ta’lim muassasasi professorining maoshi talabaning stipendiyasidan bor-yo‘g‘i ikki karra ortiq edi, xolos. O‘qishga, o‘qitishga munosabat ham shunga loyiq tarzda bo‘ladi, albatta. Boshqacha holatni aslo ko‘z o‘ngingizga keltirmang. Hatto Alisher Navoiy qurdirgan madrasada professor darajasidagi mudarrisning maoshi talabaning eng kam stipendiyasidan 8, o‘rtacha stipendiyadan 6 va yuqori stipendiyadan 4 karra ko‘p bo‘lgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev oliy ta’lim muassasasida eng kichik vazifadan prorektorgacha bo‘lgan bosqichlarni bosib o‘tgan, bu sohaning barcha sir-sinoatidan boxabar kishi sifatida mamlakatda oliy ta’lim tizimini yuksak darajaga ko‘tarishning yo‘llarini izladi va topdi ham.

Birinchidan, oliy ta’lim muassasasi yoki tashkilotlarining soni, ikkinchidan, mavjudlarining kvotasi ko‘paytirildi, uchinchidan, yurtimizda yangi-yangi davlat va nodavlat oliy ta’lim dargohlari, jahondagi nufuzli oliy ta’lim muassasalarining filiallari tashkil etildi.

Bugun oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari uchun yaratilgan shart-sharoitlarga yon-atrofimizdagi davlatlar havas qilyapti. Natija ham shunga mos, albatta. Yetti yil burun bitiruvchilarning oliy ta’lim muassasasiga o‘qishga kirishi bitiruvchilar umumiy sonining 9 foizinigina tashkil etar edi. Bu har 11 nafar bitiruvchining birigina o‘qishga kirganini bildirardi. 2023/24-o‘quv yilida bu ko‘rsatkich 42 foizni tashkil etdi. Demak, bultur har 10 bitiruvchining 4 nafardan ortiqrog‘i oliy ta’lim muassasasi talabasi bo‘ldi. 2024/25-o‘quv yilida bu borada yana o‘sish bo‘lishi kutilyapti. Chunki 2030-yilga borib ushbu ko‘rsatkichni 70 foizga yetkazish ko‘zda tutilgan. O‘shanda har 10 bitiruvchidan 7 nafari oliy ma’lumot olgan bo‘ladi.

O‘tgan o‘quv yilida mamlakatimizda 1 million 300 mingdan oshiq talaba oliy ta’lim tizimida tahsil oldi. Bu aholining har 28-29 nafaridan biri oliy ma’lumot olayotganini anglatadi. Oliy ta’limdagi bu siljishlar ertaga yo indinga mamlakatda hayotning umumiy darajasi ko‘tarilishiga olib keladi, albatta.

FUNDAMENTAL FAN RAVNAQI

Ilgariroq Fanlar akademiyasining ko‘p yillik tarixga ega ba’zi institutlari oliy ta’lim muassasalari huzuriga o‘tkazildi. Bu tajriba aslo o‘zini oqlamadi. Fundamental fan orqaga ketdi. Ana shu xato ham tuzatilib, o‘sha institutlar yana Fanlar akademiyasi bag‘riga qaytdi.

Dunyo tajribasi fundamental fanlar bilan ilmiy tadqiqot institutlari shug‘ullanishini taqozo etadi.

O‘QUV ZALLARI GAVJUM KUTUBXONALAR

Shavkat Mirziyoyev mamlakatda kitobxonlikka alohida e’tibor berib, bir necha qonunosti hujjatlar qabul qildi. Kitobxonlar o‘rtasida tanlovlar tashkil etildi. Jamiyatni ilm-ma’rifatsiz olg‘a siljitib bo‘lmasligi odamlar ongiga quyildi.

Hozirgi kundagi bir quvonchli faktni keltiray: ertalab soat 10 dan kech qolsangiz, O‘zbekiston milliy kutubxonasi o‘quv zallarida o‘zingizga joy topishingiz amri mahol. Xalq kitob o‘qishga kirishdi. Odamlar tushundiki, dunyoning bu global raqobat maydonida o‘qimay turib g‘olib kelishning hech iloji yo‘q.

MA’NAVIYAT – TARAQQIYOT GAROVI

1994-yili tashkil etilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining tuman va shahar bo‘limlari jamoatchilik asosida ishlar, mabodo hokimiyat mablag‘ topib bersa, xodim oylik olar edi. Hozir bu Markazning barcha tuman va shahar bo‘limlari davlat byudjetidan maosh bilan ta’minlangan. Ayrimlari hatto xizmat avtomobiliga ham ega.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining markaziy apparati tuzilmasi ham yangi-yangi shtatlar bilan boyitildi. Uning huzurida hatto Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti ham faoliyat olib boryapti.

XALQNI TOMORQA HAM BOQADI

Mustaqillikkacha biz asosan agrar respublika edik. Keyin sanoatlashgan agrar mamlakatga aylandik. So‘nggi yetti yilda bu borada siyosat ham o‘zgardi. Zotan, xudo bizga bu serhosil yerlarni faqatgina paxta yetishtirish uchungina in’om etgani yo‘q. Nima ekib paxtadan ko‘ra ko‘proq daromad oladigan bo‘lsak, marhamat, shuni ekaylik.

Shu siyosatning tarkibiy qismi sifatida yana bir muhim pozitsiya shunday qattiq tutilyaptiki, buni alohida qayd etmasdan iloj yo‘q. Tomorqa qishloq ahliga ishlab chiqarish maydoni, ya’ni daromad ko‘rish manbasi sifatida berilgan. Axir bu yil bahorda Prezident Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumaniga borib, uyma-uy yurib, kishilarning shaxsiy tomorqalarini ko‘zdan kechirdi. Shu tariqa “Sayxunobod tajribasi” mamlakat uzra yoyildi.

Tomorqachilik bugun bozor iqtisodiga moslasha boshladi. Ishonmasangiz, YouTube ijtimoiy tarmog‘ini kuzating, tomorqada iqtisodiy daromad keltiradigan ekinlar ekib, hosil yetishtirish bo‘yicha qanday ajoyib tajribalar ommalashtirilyapti. Masalan, aksariyat viloyatlarimizda shu paytgacha yetishtirib kelingan kam daromadli uzum toklariga zamonaviy, ilmiy asosda yangi yaratilgan, xaridorgir navlarni yoppasiga payvandlash avjiga chiqqan. O‘z tomorqasidagi issiqxonalarda shunday qimmatbaho navlarning ko‘chatlarini tayyorlab sotayotgan mirishkorlar paydo bo‘ldi. Uzumning “Avatar”, “Manikyur finger”, “Lombarjini”, “Amerikanka gigant”, “Xelloin”, “Mersedes” va boshqa eng bozorgir turlari yetishtirilyapti. Dehqon yo bog‘bonlarimiz ilmiy asosda meva, sabzavot va poliz mahsulotlarini parvarishlayapti.

Hamma narsa niyatga bog‘liq. Bugun O‘zbekistonimizda tomorqachilik misli ko‘rilmagan darajada rivojlanish bosqichiga kirdi. Shu tariqa fuqarolarimiz *“Bizni davlat boqsin”* degan xomxayoldan voz kecha boshladi. Bu – katta yutuq. Chunki ongdagi o‘zgarish amalda hamma narsani o‘zgartirib yuborishga qodir kuch hisoblanadi.

INVESTITSIYA FAQAT “PUL” DEGANI EMAS

Odam rivojlanishi uchun ham, mamlakat ravnaq topishi uchun ham to‘rt narsa kerak: birinchisi – aql, ikkinchisi – mablag‘, uchinchisi – mehnat, to‘rtinchisi – bozor. Xalqimizning: *“Pul pulni topar, bepul – dardisar”,* degan ajoyib maqoli bor. *“Dardisar”* degani – *“bosh og‘rig‘i”*, ya’ni *“muammo”* degani. Aqlni o‘stirish uchun ham mablag‘ kerak, aql esa mablag‘ni ko‘paytirishga asos bo‘ladi.

Investitsiya mamlakatga ham mablag‘, ham aql olib kiradi. To‘g‘ri, mablag‘ Koreyaniki bo‘lishi mumkin, lekin texnologiya, ya’ni aqlni Yaponiyadan keltiradi. Bizda qurilgan har qanday katta korxonada, albatta, xalqimiz vakillari mehnat qiladi. Shu tariqa biz ham kiritilgan ana shu mablag‘dan bahramand bo‘lamiz, ham shu tariqa yangicha ishlab chiqarish texnologiyalarini o‘zlashtiramiz. Investor esa, tabiiyki, bizda ishlab chiqarishni tashkil etishdan oldin bozorni o‘rgangan, mahsulotini ham ichki, ham yaqin tashqi bozorda, ya’ni bizga qo‘shni mamlakatlarda sotishni hisobga olgan bo‘ladi. Shu tariqa biz eksport ham qilamiz. Axir, qaysi mamlakatda eksport hajmi import hajmidan ko‘p bo‘lsa, u yerda taraqqiyot yuz beradi-da.

XALQ, DAVLAT VA PREZIDENT

Xalq, davlat va Prezidentni bir-biridan ajratib qarash mumkin emas. Chunki Prezident – davlatni xalq manfaati yo‘lida boshqarishga mas’ul shaxs. Uni xalq saylagan. Xalq davlat taqdirini unga ishonib topshirgan. Shuning uchun ham mamlakat taraqqiyoti – har taraflama davlat rahbarining sa’y-harakati, iqtidori, salohiyati va niyatiga bog‘liq.

Har bir davlat rahbari amalda o‘sha mamlakat xalqining sha’ni, sharafi, kerak bo‘lsa, tashrif qog‘ozi ham hisoblanadi. Uning jahon miqyosidagi shaxsiy obro‘-e’tibori tabiiy ravishda mamlakat xalqining obro‘-e’tiborini anglatadi. Shubhasiz, shu shaxsiy obro‘-e’tibor mamlakat va uning xalqi uchun katta boylik sifatida asqotadi.

Shu ma’noda, Prezidentimizga bugungi O‘zbekistonimizda yuz berayotgan katta o‘zgarishlarning asosiy tashabbuskori sifatida qarashimiz lozim.

YANGI O‘ZBEKISTON JAHON NAZDIDA

Keling, endi O‘zbekistonimizda so‘nggi yetti yilda yuz bergan ko‘tarilish davriga dunyoning ko‘zi bilan boqaylik. Jahon bizga jozibador diyor sifatida qaray boshladi. Buni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterresh, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin va boshqa davlat rahbarlarining xalqimiz, davlatimiz va Prezidentimizga samimiy, do‘stona va xayrixoh munosabati, bildirgan iliq fikr-mulohazalaridan ham bilib olsa bo‘ladi.

DAXLDORLIK

Mamlakatimizda taraqqiyot eshiklari ochilgan bugungi zamonda yashayotgan har bir fuqaro ana shu umummilliy harakatga shaxsiy hissasini qo‘shishni o‘ylab yashashi lozim. Shaxsiy hissa qo‘shish, avvalo, uning o‘zini boyitishi, baxtli qilishiga zamin bo‘ladi.


Bu umummilliy harakatdan uzilib qolishga hech kimning haqqi yo‘q. Chunki xalqning o‘z milliy davlati va uning rahbari bo‘lmish Prezidentning maqsad va g‘oyalari bilan birligi, yakdilligiga erishishi tarixan eng katta yutuq sanaladi.

Kamina mamlakatimizda ro‘y berayotgan ulkan islohotlarning yuzdan birini eslab o‘tdim xolos. Aziz yurtdosh, bu borada sizning ham o‘z dunyoqarashingiz, o‘z nuqtayi nazaringiz va bahoyingiz bor, albatta. Pirovardida aytmoqchimanki, barchamiz buyuk o‘zgarishlar davrida yashayapmiz. Shu tarixiy solnomaga biz ham o‘z ulushimizni qo‘shaylik, el va yurt ravnaqi yo‘lida ulug‘ yetakchimizga kamarbasta bo‘laylik!

Sultonmurod OLIM,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi

YANGI O‘ZBEKISTON: 7 YILDA YETISHGANLARIMIZ





FARG‘ONA TASHRIFI:

KELAJAK UCHUN DADIL QADAMLAR

Boshlanishi 1-sahifada.

Universitet yaqinidagi Tepaqo‘rg‘on arxeologiya yodgorligini ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirish tashabbusi ilgari surilgani ayni muddao bo‘ldi. 2008–2011-yillarda olib borilgan keng ko‘lamli arxeologik o‘rganishlar natijasida ushbu tarixiy maskan miloddan avvalgi davrlarda urbanizatsiyalashgan qarorgoh bo‘lgani aniqlangan va u aynan 2500 yillik tarixga ega Qo‘qon shahrining qadimiyligini dalillaydigan obyektdir. O‘tgan asrning 30-yillarida esa, bu qo‘rg‘ondagi umumiy qabrlarga begunoh insonlar, qatag‘on qurbonlari ko‘mib yuborilgan. Shu yerda yashovchi yoshi ulug‘ insonlarning xotirlashicha, o‘shanda uch kungacha mozor tuprog‘i qalqinib turgan, ammo sovetlarning qattol siyosati sabab tiriklay ko‘milgan odamlarni qutqarishga hech kimning yuragi dov bermagan...

Bu maskanda umumiy tariximiz yotibdi. Xalq o‘z tarixini bilishi, moziy manbalarini ziyorat qilishi vatanparvarlikning belgisidir. Tarixini yaxshi bilgan insonning yuragida o‘z yurti istiqboli uchun hissa qo‘shish ishtiyoqi kuchli bo‘ladi. Shuning uchun ushbu hududda ma’rifatparvar jadid Ashurali Zohiriy nomidagi muzey tashkil etilib, bu ishlar uchun 10 milliard so‘m mablag‘ ajratildi. Farg‘ona turizm halqasining yaratilishi va bu yo‘nalishga tarixiy qadamjolarning ham kiritilgani ayni muddao bo‘ldi.

Prezident tashrifining navbatdagi manzili Bag‘dod tumanidagi Matqulobod qishlog‘i bo‘ldi. Ushbu qishloqdagi “Yuksalish” mahallasida “Gulnora Matqulobod bodomlari” korxonasiga asos solgan Gulnoraxon Usmonova istiqomat qiladi. Faoliyatini bir necha yil oldin atigi olti kilogramm bodomni po‘stidan tozalab, saralab, bozorda sotishdan boshlagan bu omilkor ayol yillar davomida orttirgan tajribasini qo‘ni-qo‘shnilariga ham o‘rgatib, bugungi kunda yuzlab ayollarni ishli qildi. Besh yuzdan ortiq xonadonni kasanachilikka jalb etdi. Endilikda mazkur korxonada qayta ishlangan bodom mahsuloti mamlakatimiz bo‘ylab tarqatilmoqda, yaqin orada eksportga yo‘naltirish ham reja qilinadi. Oddiy o‘zbek ayolining mamlakatimizda tadbirkorlarga yaratilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanib, boshqalarga ham manfaati tegayotgani davlat rahbarining e’tiboriga tushdi. Korxona faoliyati bilan tanishib, tadbirkor va kasanachi ayollar bilan suhbatlashgach, Prezident ularga tashabbuskorligi va mehnatsevarligi uchun minnatdorlik bildirdi. Darhaqiqat, bugungi xalqchil siyosatni to‘g‘ri anglab, unga kamarbasta bo‘layotgan Gulnoraxon ko‘pchiligimizga namunadir.

Bugungi islohotlarning natijasi aynan bag‘dodliklar hayotida ko‘rinmoqda desak, haqiqatni aytgan bo‘lamiz. O‘tgan yillardagi tashrif paytida berilgan topshiriqlar natijasida Bag‘dod tumanining eng chekka, tashlandiq hududi – dasht qismida yangi, zamonaviy massiv barpo etilgan edi. Barcha sharoitlar, qulay infratuzilmalarga ega yangi qurilgan Guliston mahallasida bugunidan va insonparvar islohotdan rozi insonlar yayrab istiqomat qilmoqda. Bag‘dod ilgari viloyatda sanoati eng kam rivojlangan, infratuzilmasi zaif tuman hisoblanar edi. So‘nggi yillarda qaratilayotgan e’tibor tufayli ushbu tuman “Bag‘dod tajribasi” sifatida butun mamlakatga namuna qilib ko‘rsatiladigan go‘zal maskanga aylanmoqda.

Bugun mamlakatimizda urbanizatsiya jarayonlari jadal bormoqda. Har bir shahar va tuman markazini teng rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Marg‘ilon, Farg‘ona shaharlaridagi yangi bunyodkorliklar bu islohotlarning natijasi sifatida ko‘zni quvnatib turibdi. Farg‘ona shahridagi “Yangi O‘zbekiston” massivi va bog‘i nafaqat farg‘onaliklar uchun, balki butun vodiy ahliga katta sovg‘a bo‘ldi.

Farg‘onada yirik sanoat va energetika obyektlari faoliyatiga va qurilishiga start berilishi ko‘p milliard dollarlik loyihalarni amalga oshirishga asos bo‘ldi. Farg‘onaning chinakam ma’noda sanoat shahri maqomiga ega bo‘layotgani u yerda yashayotgan odamlarning farovon hayoti uchun juda muhim hisoblanadi. Viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda tanqidiy fikrlar ham bildirildi va oqsayotgan sohalarni yanada rivojlantirish yuzasidan tegishli ko‘rsatmalar berilib, qat’iy choralar belgilandi.

Jumladan, Qo‘qon erkin iqtisodiy zonasini Quvasoy shahri maydonlari hisobidan kengaytirish, Beshariqda 500 megavattli, O‘zbekiston tumanida 180 megavattli fotoelektr stansiyalari qurish, Marg‘ilonda infratuzilmani kengaytirish, yangi massiv, mehmonxonalar, so‘lim xiyobonlar, maqom teatri va boshqa inshootlarni barpo etish, Quvada savdo-servis obyektlarini joylashtirish, mebelchilikni rivojlantirish, arxeologik muzey tashkil etish, shuningdek, “Toshkent–Andijon” yo‘lovchi poyezdining Quvada to‘xtab o‘tishini ta’minlash, “Karkidon” suv omborining mavjud ulkan salohiyatini to‘liq ishga solish singari ko‘plab vazifalar belgilab olindiki, bu rejalar vositasida kelajak uchun muhim qadamlar qo‘yildi.

Ayniqsa, “Vodil” – “Oqqiya” chegara postidan xorijiy turistlarning o‘tishi cheklangani tufayli ular anklav qishloqlarga O‘sh orqali aylanib kelishga majbur bo‘layotganiga alohida urg‘u berildi. “Yo‘l azobi – go‘r azobi” deydi xalqimiz. Yo‘ldagi ovoragarchiliklar investorlarning Shohimardon, Yordon qishloqlariga mablag‘ sarflash imkoniyatini kamaytirib, sayohat istagidagi xorijiy turistlarga qiyinchilik tug‘dirmoqda. Bu manzarali so‘lim maskanlarda turizmni rivojlantirish uchun yuqoridagi chegara punktiga xalqaro maqom berish yuzasidan qo‘shni davlat rasmiylari bilan kelishuvga erishish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Bugun Farg‘ona misolida ham yurt rahbari qadami yetgan ma’volar obod bo‘layotganini ko‘rib turibmiz. Ulkan vazifalar, buyuk maqsadlar dadil va katta qadamlar tashlashga undaydi. Xalqimizda shukronalik, islohotlarga daxldorlik, ertangi kun uchun fidoyilik hislarini yanada jo‘sh urdiradi.

Gulbahor SAIDG‘ANIYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

IBRAT



OTAXON KLINIKANING NAVQIRON AVLODI

Dunyoda yer kurrasidan-da og‘irroq bir yuk bor. U ham bo‘lsa – bemor norasidaning chekayotgan dardi. Yon-verimizda bola ingrog‘i eshitilar ekan, na ichgan choyimizdan, na yegan nonimizdan huzur tuyamiz. Bugun kelajagimiz davomchilari bo‘lgan farzandlarimizning salomatligini saqlash maqsadida sog‘liqni saqlash tizimida ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Yurtimizda shu sohada, xususan, bolalar xirurgiyasi yo‘nalishida samarali faoliyat ko‘rsatayotgan shifo maskanlari borligini ta’kidlash joiz. Samarqand davlat tibbiyot institutining 2-klinikasi qoshidagi bolalar xirurgiyasi markazi ana shunday manzillardan biridir.

Umrini shu sohaga tikkan taniqli bolalar jarrohi, professor Azamat Shamsiyev tashabbusi va sa’y-harakatlari bilan 1985-yilda tashkil etilgan ushbu shifo maskanining dovrug‘i qo‘shni mamlakatlarga ham yoyilgan. Biz u yerga kirib borganimizda eng avvalo, o‘ziga xos ozodalik, tartib-intizom diqqatimizni tortdi. Bir qarashda davlat kasalxonasi emas, xorijdagi xususiy tibbiyot muassasasini eslatadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tibbiyot sohasini isloh qilishga qaratgan e’tibori bugun o‘z natijasini bera boshlagani ayni haqiqat. Soha rivojiga oid islohotlar mavjud klinik kasalxonalarning moddiy bazasini yaxshilash, zamonaviy tibbiy texnikalar, shuningdek, zarur dori-darmonlar bilan ta’minlash yo‘lida inqilob qildi, desak mubolag‘a bo‘lmasa kerak. Ana shu o‘zgarishlar samarasi o‘laroq, 200 o‘ringa mo‘ljallangan ushbu jarrohlik markazi ham 2019-yilda kapital ta’mirdan chiqarilib, xorijdan eng zamonaviy asbob-uskunalar, diagnostik apparatlar keltirildi. Klinika binosi ikki blokka ajratilib, bemorlarni ortiqcha urintirmaslik maqsadida ma’muriyat, funksional diagnostika, laboratoriya bo‘limlari bir tomonga, bir-biriga yondosh xonalarga joylashtirildi.

Shuningdek, tibbiy muassasada uch yo‘nalish – davolash, ilmiy amaliyot va o‘quv ishlarini birgalikda olib borish konsepsiyasi ishlab chiqilib, amalga tatbiq etildi. Faoliyatining dastlabki yillaridanoq yo‘lga qo‘yilgan xalqaro hamkorliklar rivojlantirildi. Sobiq ittifoq davri va mustaqillik yillarida MDHga a’zo mamlakatlardagi ilmiy tekshirish institutlari bilan o‘rnatilgan uzviy aloqalar yanada mustahkamlandi. Malayziya, Janubiy Koreya, Singapur, Hindiston, Filippin, Yaponiya kabi davlatlar bilan ham yaqin hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Bemorlarga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatgani e’tirofi o‘laroq, 2021-yilda Xalqaro ISO sertifikatini qo‘lga kiritgani klinikaning nufuzini yanada yuksaltirdi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan to hozirga qadar markazda bolalarda ko‘p uchraydigan o‘pka, yurak, jigar, siydik-tanosil a’zolari kasalliklarini davolash bo‘yicha 150 mingdan ziyod yuqori texnologiyali murakkab operatsiyalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilgani bu yerda olib borilayotgan ishlar ko‘lamidan dalolat beradi. Bundan tashqari, 2017-yildan buyon o‘tkazilayotgan endoxirurgik operatsiyalar dinamikasi yil sayin o‘sayotgani, klinika shifokorlarining o‘ttizdan oshig‘i Osiyo endoskopik va laparoskopik xirurglar uyushmasiga a’zo bo‘lgani markazda davolash amaliyoti bilan bir qatorda ilmiy va o‘quv ishlari ham jadal rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Ayni paytda bolalar xirurgiya markazida Samarqand davlat tibbiyot institutining bolalar xirurgiyasi, bolalar anistizologiyasi, revmotologiya va klinik laboratoriya kafedralari ham joylashgan. Shu bilan birga, klinika tarkibida katta o‘quv bazasi mavjud.

– O‘tgan yili Osiyo-Tinch okeani mintaqasida endoskopik xirurglarning katta obro‘ga ega Endoskopik va laparoskopik xirurglar jamiyati xalqaro federatsiyasi (ELSA)ning “Ipak yo‘li”da minimal invaziv xirurgiya” deb nomlangan birinchi bahorgi kongressi bizning shifo maskanimizda bo‘lib o‘tdi, – deydi klinika rahbari Jamshid Shamsiyev. – Keyingi yillarda klinikamizning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanib, yuqori texnologik davolash metodlari qo‘llanilayotgani va o‘ta murakkab jarrohlik amaliyotlari o‘tkazilayotgani kongressning Samarqandda tashkil etilishiga zamin yaratdi. Eng ahamiyatlisi, kongress doirasida filippinlik xirurglar va o‘zimizning mutaxassislar hamkorligida ilk bor chov churrasi laparoskopik usuldagi operatsiyasi onlayn translyatsiya qilindi. Ushbu jarrohlik amaliyoti shifokorlarimizga nafaqat bemorlarni zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda operatsiya qilish, balki xorijlik shifokorlar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri tajriba almashish imkonini ham berdi.

Yuqorida aytganimizdek, el orasida nom qozongan Samarqand ko‘p tarmoqli ixtisoslashgan bolalar xirurgiyasi markazi faoliyati maqtasa arzigulik. Markazda bosh shifokor Jamshid Shamsiyev tashabbusi bilan akademik guruhlar tuzilgan bo‘lib, har qaysi guruh o‘z ixtisosi bo‘yicha jarrohlik ishlarini amalga oshiradi. Bu yerda kuniga 35-40 ta rejali operatsiyalar va o‘nga yaqin, ba’zan undan ham ko‘proq shoshilinch operatsiyalar o‘tkaziladi. Tug‘ilganiga atigi bir soat ham bo‘lmagan chaqaloqlardan tortib, 18 yoshgacha bo‘lgan bemorlar turli kasalliklar tufayli jarrohlik stoliga yotqiziladi. Jumladan, torakal, ya’ni ko‘krak qafasidagi tug‘ma yoki orttirilgan kasalliklar, yiringli xirurgik xastalik, ichki a’zolardagi o‘smalar, yuz-jag‘lardagi tug‘ma nuqsonlar va ayniqsa, keyingi yillarda ko‘payib borayotgan har xil kislota va ishqorlarni ichib qo‘yish natijasida qizilo‘ngach va tomoq yo‘llarining torayib ketishi bilan bog‘liq kasalliklar kesish yoki toraskopik usulda bartaraf etiladi.

Klinikaga respublikaning deyarli barcha viloyatlaridan bemorlar hech qanday yo‘llanma yoki boshqa talablarsiz qabul qilinadi. Ularga o‘ndan oshiq professor, oltmishdan oshiq tajribali shifokor va 200 ga yaqin hamshira xizmat ko‘rsatadi. Bir yilda klinika 20 mingdan oshiq bemor bolalarni qabul qiladi. Ulardan 10 mingdan ziyodi yotib davolanadi, taxminan sakkiz ming nafar bola operatsiya qilinadi. Hozirgi kunda operatsiyalarning 50 foizdan oshig‘i miniinvaziv endoskopik, laporoskopik, toraskopik usulda amalga oshirilmoqda.

– Bizda ish ertalabki klinik konferensiya bilan boshlanadi. Bu ko‘pchilik tasavvuridagi “pyatiminutka” yoki “planyorka” emas, unda ordinatorlar, vrachlar va talabalar qatnashadi, – deydi Samarqand davlat tibbiyot instituti bolalar xirurgiyasi kafedra mudiri Shuhrat Yusupov. – Ertalab soat sakkizdan boshlab darsga kelgan talabalar operatsiya stoliga yotadigan bemorlarning holatini video prezentatsiya orqali izohlab, jarayonga tayyorlash hamda davolash uslublarining yangi variantlariga oid ma’lumotlar beradi. Har xil xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida ertalabki klinik konferensiyada deyarli barcha kasalliklar yuzasidan eslatmalar aytib o‘tiladi.



Professor Azamat Shamsiyev

Klinika 24 soatlik ish faoliyatiga ixtisoslashgan bo‘lib, uch xirurg, bir anesteziolog, bir UZI mutaxassisi va tashxis bo‘limning tungi navbatchiligi yo‘lga qo‘yilgan. Bemorlardagi barcha kasalliklar klinikaning o‘zida tekshiriladi. “U yoqqa bor, bu yoqqa borib aniqlatib kel”, deb ovoragarchilikka yo‘l qo‘yilmaydi. Kasalxonaga yotqizilgan bemorga choyshab-yostiqlar kraxmallanib, qadoqlangan holatda beriladi. Bemorlar yotadigan xonalar boshqa kasalxonalardan farqli o‘laroq bir kunda besh mahal tozalanadi. Klinikadagi tartib-intizomning shaxsan bosh shifokorning qat’iy kuzatuvida turishi bemorlarda ham tozalikka rioya qilish ko‘nikmasini hosil qiladi.

Biz davolanishda bo‘lgan bemorlar bilan suhbatlashib, shunga amin bo‘ldik.

Husnora ISOQULOVA, Jizzax viloyati, Jizzax shahridan kelgan bemorning onasi:

– O‘g‘limiz 26 aprel kuni ehtiyotsizlik tufayli mashinani yuvish uchun ishlatiladigan shampunni ichib qo‘ygan. Uni yigirma kun Jizzaxda – markaziy kasalxonada davolashdi. Bolani butunlay tuzaldi, deb javob berishdi. Ammo uyga borishimiz bilan dardi qaytalab, suv ham icholmay qoldi. Shundan so‘ng uni Samarqandga olib keldik. Shifoxonada bizga zudlik bilan tibbiy yordam ko‘rsatishdi. Hozir, mana, o‘g‘lim bemalol ovqat yeyapti. Shifokorlardan minnatdor bo‘lib, ularni duo qilib o‘tiribmiz. Bu yerda barcha xizmatlar tekin ekan. Oshxona-yu palatalarning pokiza, sarishtaligini aytmaysizmi...

Sohiba NURIDDINOVA, Samarqand viloyati, Paxtachi tumanidan kelgan bemorning onasi:

– Qizim uch yoshda. Ehtiyotsizlik qilibmiz, qozon yuvadigan “azelit” ichib qo‘yibdi. Jonholatda Toshkentga olib bordik. Bir xirurg “20 million xarajat qilasiz”, dedi. Bizda buncha pul yo‘q edi. Keyin tanishlarning maslahatiga ko‘ra bu yerga keldik. Darrov davolashga tushishdi. Qizimning ahvoli judayam og‘ir edi. Tez o‘nglanyapti, Xudoga shukur. Hech qanday xarajatga hojat bo‘lmadi. Shunday sharoitlarni yaratib qo‘ygan davlatimizga rahmat, Prezidentimizga tashakkur. Shifokorlardan minnatdormiz.

Temurbek TEMIROV, Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridan kelgan bemor:

– O‘pkamda exinokok bor ekan. Yarim litrdan ko‘proq deyishdi pufakda yig‘ilgan suyuqlikni. Endoskopik apparat bilan olib tashlashdi. Badanimning uchtagina joyida sezilar-sezilmas teshikcha bor xolos, tig‘ izi yo‘q. Ahvolim yaxshi hozir. Juda yaxshi qarashyapti. Ertalabki muolajalarim sababli nonushtaga ulgurmayman. Yeguliklarni olib, o‘rab qo‘yishadi. Hamma-hammasi yaxshi bu yerda.

Ha, Konstitutsiyamizda o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan bolalarga tibbiy xizmatlar bepul deb belgilab qo‘yilgan. Ammo davlat byudjetidan kasallar uchun ajratilgan yetarli miqdordagi mablag‘lar hamma kasalxonalarda ham to‘g‘ri taqsimlangan deb bo‘lmaydi. Klinikada shu jihatlarga jiddiy e’tibor qaratilishi tahsinga loyiq. Qolaversa, o‘z kasbiga vijdonan yondashib, bemor sihatini yaxshilashni bosh maqsad sanaydigan shifokorlar bu qutlug‘ an’anani klinika tashkilotchisi, fidoyi inson Azamat Shamsiyevdan o‘rganishganini aytishadi.

Shu o‘rinda Azamat Shamsiyev haqida ikki og‘iz gap: u kishi klinikani tashkil qilib, yigirma uch yil boshqardi, o‘n olti yil Samarqand davlat tibbiyot institutiga rektor bo‘ldi. Bolalar xirurgiyasi bo‘yicha 40 dan oshiq fan nomzodiga ustozlik qildi. 30 dan oshiq monografiya, 1150 o‘quv qo‘llanma, darsliklar, maqolalar yozdi. Viloyatda birinchi bo‘lib yurak operatsiyasini amalga oshirdi. Murakkab operatsiya hisoblangan ko‘krak qafasi tug‘ma girdobsimon deformatsiyasini kam invaziv (kamshikast) usulda plastinka qo‘yish yo‘li bilan davolashni tatbiq etdi. Farzandlari orasidan munosib voris tarbiyaladi. Bugun ota izidan borib, jarrohlik ilmini o‘rgangan o‘g‘li Jamshid Shamsiyev klinikani u kishi joriy qilgan mezonlar asosida halol va adolatli boshqarmoqda.

Klinika xalq dardiga darmon bo‘lib, respublikaning eng yaxshi bolalar kasalxonasi degan maqomini saqlab kelmoqda. Viloyatning ko‘plab tumanlarida sayyor xirurgik tekshiruvlar tashkil qilinib, kasalliklarni bemor shikoyatidan oldinroq aniqlash ishlari ham yo‘lga qo‘yilgan. Ayni kunlarda Pastdarg‘om, Oqdaryo tumanlaridagi o‘quvchi bolalar to‘liq tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilgani o‘rnak qilib ko‘rsatsa arzigulik ko‘rsatkich.



Klinika shifokorlaridan muammolar haqida so‘raganimizda, ular ota-onalar farzandi sog‘lig‘iga mas’ul bo‘lishlari uchun targ‘ibot ishlarini kuchaytirish kerakligini aytishdi. Har qancha tajriba orttirib, diydasi toshdek qotgan odam uchun ham murg‘ak bolaning tanasiga tig‘ tekkizish oson emas. Yana bir dolzarb masala shuki, har xil ishqoriy tozalamalar paydo bo‘lgan bugungi kun yosh onalar uchun xavf ko‘paygan. Avvalo, ular bu maishiy “og‘u”larni bolalarning qo‘li yetmas, ko‘zdan nari joylarda saqlamog‘i shart. Mabodo, farzandi bilmasdan kislota yoki ishqor ichib qo‘ysa, har bir daqiqa g‘animat ekanini bilishlari zarurligini shifokorlar kuyunib gapirishdi. Sizlar gazetada ham shu haqda ko‘proq yozinglar, aholini boxabar qilinglar, deb iltimos qilishdi. Shifokorlarimiz o‘z muammolaridan bolalarning salomatligini ustun qo‘yayotganidan quvondik. Garchi tibbiyot rivojlanib, kasallikni aniqlash osonlashyapti, biroq shu bilan birga jamiyat sog‘lomligiga raxna soluvchi xastaliklar ham kam emas: loqaydlik, befarqlik, tamagirlik, ko‘zbo‘yamachilik... Klinika ahli ana shu “yuqumli kasallik”lardan ihotalangani sababli bu dargoh el-yurt ishonchini qozonib borayotgandir ehtimol.

Muhayyo PIRNAFASOVA

“NOMI QORAQALPOQ ELLARIM BORDIR...”

Boshlanishi 1-sahifada.

Qadim-qadimdan xalqimiz bilan qon-qardosh, qo‘ni-qo‘shni bo‘lib yashab kelayotgan qoraqalpoq xalqining ulkan shoiri barchamiz uchun birday aziz, albatta. Bundan qariyb ikki asr muqaddam qoraqalpoqlarning ko‘ngil dardini she’rga solgan shoir she’rlari hali shu kunga dovur el og‘zidan tushmaydi.

Kuni kecha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Atoqli qoraqalpoq shoiri va mutafakkiri Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘li tavalludining 200 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori e’lon qilingani mamlakatimiz adabiy hayotida muhim voqea bo‘ldi.

Jamiki adabiyot muhiblari Ajiniyoz ijodiga har yili qayta nazar solishadi, she’rlarini takror o‘qishadi. Muhimi, shoirning she’rlari vositasida bir inson qalbi misolida qoraqalpoq xalqining ma’naviy-adabiy tafakkuridan boxabar bo‘lishadi.

Hamma zamonlarda iste’dodli odamni el dardi qo‘liga qalam tutqazgan va shundan xalqchil shoirlar bunyod bo‘lgan. “Aytsam ado bo‘lmas dardlarim bordir”, degan shoir bobo yana bir she’rida yozadi:

“Kimga aytay arz-u holim,
Ko‘ngilda ko‘p qiyl-u qolim,
O‘tgan umrim – zahr-u bolim,
Totli bo‘lur, totsiz bo‘lur...”

Bu – birgina insonning dardi, o‘tgan umri haqidagi oddiy so‘zi emas. Bunday o‘rinda chinakam xalq shoiri qaysidir darajada ijtimoiylashadi. O‘z davri odamlarining qalbi ifodachisi o‘laroq maydonga chiqadi. Shunga ko‘ra Ajiniyoz she’rlarida chin ma’noda qoraqalpoqlarning o‘tmishi, zamini, urug‘ va qavmlariga doir tarix ham o‘z aksini topgan. Shuning uchun shoir she’rlarida turli toponimik nomlar, qoraqalpoq millati etnosiga tegishli tushunchalar ko‘p uchraydi. Ayni damda shoirning she’riy misralarida takrorlanadigan qitay, qipchoq, kenagas, ochamayli, mang‘it kabi atamalarning mazmun-mohiyatini anglash uchun turkiy qavmlar tarixini, etnografiyasini bilish lozim, albatta. Shoirning she’rlarida keng yaylovlar nafasi keladi, sahro falsafasi jonlanadi; bir zamonlarda “jonivorlarga makon bo‘lgan ko‘llar” ko‘z oldimizda gavdalanadi.



Ajiniyozshunoslar shoirning “Bo‘zatov” dostoni tarixiy qimmatga ega ekanini ta’kidlashadi. Zotan, bu ulkan asar o‘z davrining muayyan ziddiyatli hodisalari bilan bog‘liq.

“Yo‘q edim, bor bo‘ldim, kamolga keldim,
Arabiy ot minib, davronlar surdim,
Noningni ko‘p yedim, rohating ko‘rdim,
Xo‘sh, omon bo‘l, qolding endi, Bo‘zatov”.

Shoir boshqa ellarga bosh olib ketar ekan, “Xo‘sh, omon bo‘l, qolding endi, Bo‘zatov”, deb bejiz bo‘zlamaydi. Zero, bu faqat shoirning emas, balki xalqining ham dardi edi. Elparvar shoir xalq dardini abadiyatga muhrladi; uning orzu-umidlarini dildan kuyladi. Ajiniyoz she’rlarida yuksak insoniy fazilatlar, mardlik, sadoqat, go‘zallik, va’daga vafo qadrlanadi. Shu kabi adabiy didaktik mavzular bilan shoir she’riyati bevosita mumtoz Sharq adabiyoti bilan hamohanglik kasb etadi.

“Yolg‘on so‘zni ishontirib aytmagan,
To‘g‘ri yo‘ldan bosh ketsa ham qaytmagan,
Nomahramni sira yo‘ldosh etmagan,
Nomi qoraqalpoq ellarim bordir”.

To‘g‘rilik, haqqoniyat, or-nomus kabi ruhiy-ma’naviy mezonlar va xususan, o‘z eli bilan faxrlanish tuyg‘usining badiiy ifodasi Ajiniyoz she’rlariga umrboqiylik baxsh etadi.

Bahodir KARIM,
professor

YOSH KUCH

Qanot qoqayotgan qiz

Faol va tashabbuskor yoshlar hamisha hukumatimiz ardog‘ida. Ularni qo‘llab-quvvatlash, iste’dodini yuzaga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish bugun har doimgidan ham muhim. 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan mamlakatimiz rahbari bir qator faol va tashabbuskor yoshlarni mukofotladi. Ular qatorida Qoraqalpoq davlat universitetining 2-bosqich talabasi Gulayim Kuanishbayeva ham bor. Bu qizning shijoatiga, g‘ayratiga qarab odam o‘zi ulgurolmagan ishlar uchun uyalib ketadi.



Hayot Gulayimni sinovlarga soldi. Imkoniyati cheklangan qizaloqning taqdiri risoladagidek kechmasligini o‘ylash oila uchun og‘riqli edi. Bir umr kimningdir ko‘magida yashashi Gulayimni ham xijolatga qo‘yardi. Ota-onasi oldida o‘zini aybdor his qilar, ammo buni hech kimga sezdirmasdi.

– Oilada ikkinchi farzandman. Opam talaba. Onam ham, opam ham mening bu ahvolimga o‘zlarini aybdor deb bilayotganlarini sezaman. Biri “bu qizimni shunday dunyoga keltirdim”, deb qayg‘ursa, ikkinchisi “men yuraman-u, singlim yurolmaydi”, deb ko‘zini olib qochardi. Nega endi? Tug‘ilmasligim ham mumkin edi, ammo men borman. Fikrlayman, o‘qiyman, idrok qilaman, qiziqishlarim ustida ishlayman. Ota-onamning ko‘nglini ko‘tarishga urinaman. Buni uddalay olaman.

Uni tinglar ekanman, inson tafakkurini va odamiylik qiyofasini asosan mutolaa belgilashini yana ham chuqur anglayman. Ko‘p kitob o‘qigan odamgina shunday mulohazali, xotirjam va taqdirga rozi, insonparvar hamda hayotsevar bo‘lishi mumkin. Gulayim bolaligidan gullarni, kapalaklarni kuzatishni yaxshi ko‘rardi. Adabiyotni sevardi. She’riyat joni dili edi. Ertaksiz uxlamasdi.

– Ijodkorlik menga onamdan o‘tgan. Yozganlari menga juda yoqadi. Birinchi ustozim ham – onam. Bolaligimda sochlarimni tarab o‘tirib, menga ertaklar, she’rlar, hikoyalar aytib berardi. Hech qachon urishmas, ko‘nglimni og‘ritmasdi. Besh yoshimdanoq o‘qishga intildim. Opam maktabda o‘zlashtirganlarini menga ham o‘rgatardi. Unga havas qilib o‘qishni, sanashni o‘rgandim. Qancha she’rlarni tengma-teng yodlaganmiz. Hikoyalar, ertaklar mazmuni yodimda qolardi. Shunga bo‘lsa kerak, birinchi sinfdayoq kichik hikoyalar yoza boshladim.

Kitoblar – ulkan mo‘jiza. Ularning ichida kichkina tashvishlar ko‘rinmay qoladi. Juda yoshligimdan kitoblar o‘qishni yaxshi ko‘rardim. Onam menga doimo kitob sovg‘a qilardi. Bir necha marta “Yosh kitobxon” tanlovida ishtirok etdim. Bu maydonda o‘zingni sinab ko‘rish shu qadar yoqimli, g‘ururliki, buni so‘z bilan aytib berolmayman. Qaysi bosqichga yetib kelmayin, men kitobxonlik tanlovlaridan faqat hayot darsini oldim.

Yurtboshimiz tomonidan adabiyot sohasiga ko‘rsatilayotgan e’tibor va g‘amxo‘rlikni yosh bir ijodkor sifatida har lahzada his qilib turaman. Atoqli qoraqalpoq shoiri va mutafakkiri Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘li tavalludining 200 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida Prezident qarori imzolanishi qalam ahliga, ayniqsa, xalq ma’naviyati, adabiyoti uchun butun umrini bag‘ishlagan fidoyi ustozlarga bo‘lgan hurmat-ehtiromning bir namunasi bo‘ldi. Mazkur tarixiy qaror doirasida o‘zbek va qoraqalpoq elining suyukli farzandi Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘lining “Tanlangan asarlar”ini chop qilish, badiiy-publitsistik film yaratish, shoir adabiy merosini o‘rganish mavzusida xalqaro ilmiy anjuman o‘tkazish, Mo‘ynoq tumanida ijodkorga yodgorlik o‘rnatish, uning nomi bilan ataluvchi ekopark barpo etish, Nukus davlat pedagogika institutida shoir muzeyini tashkil qilish kabi qator chora-tadbirlarning belgilanishi adabiyot targ‘iboti yo‘lidagi yana bir muhim qadamlardan biri, desak bo‘ladi. Ijodkorlar taqdiriga befarq bo‘lmagan, adabiyotsevar davlat rahbariga qoraqalpoq yoshlari, qalam ahli nomidan tashakkur aytaman.



Gulayim Kuanishbayevaning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarini kuzatib, katta asarlar tarjimasiga qo‘l urganiga guvoh bo‘ldik. Qiziq, u bunday jur’atni qayerdan topdi va yosh ijodkorni bunga nimalar undadi?

– “Turkiy olam” Yozuvchilar ittifoqi prezidenti Bayan Tilenshina ishonch bildirgandi, – izoh beradi Gulayim. *– “Shu romanni o‘zing o‘qib ko‘r, ma’qul desang, tarjima qilarsan”. Roman qiziqarli ekan, tarjima qilib jo‘natgandim, muallif uni Chimkentda nashr ettirdi. Ana shunda ijodiy kuchimga ishonch paydo bo‘ldi.*

Hozirda Qoraqalpog‘iston davlat universitetining Internet jurnalistikasi bo‘limida tahsil olyapman. Talabalar qatorida ism-sharifim, o‘z o‘rnim borligidan baxtiyorman. Kelajakda tarjimonlik bilan jiddiy shug‘ullanib, qoraqalpoq va o‘zbek tilidagi badiiy asarlarni har ikkala xalqqa tanishtirmoqchiman. Jurnalist sifatida ham xalqimga chin dildan xizmat qilishni istayman.


Gulayim Kuanishbayeva Qirg‘iziston Yozuvchilari uyushmasi, “Turkiy olam” hamda Dunyo talantlilari ittifoqlari a’zosi. Yaqinda Olmaota shahrida o‘tkazilgan “Turkiy olam” yozuvchilarning III xalqaro qurultoyida ishtirok etdi. Yozganlari ingliz tiliga tarjima qilinmoqda.

– Ijod – mening qanotim. Qanot qoqib uchib yurgan odamga yura olishning uncha ahamiyati ham yo‘q. Hozircha uch kitobim nashrga tayyor. Yurtboshimiz o‘z qo‘llari bilan menga davlat mukofotini topshirib, chin dildan qutlar ekan, u kishining bildirgan yuksak ishonchi, ona xalqim ko‘magida shu obod Vatanimiz ravnaqi uchun bor imkoniyatimni ishga solaman deb o‘zimga qat’iy so‘z berdim. Hech qachon oldimga qo‘ygan ulug‘ maqsadlarimdan chekinmayman, og‘ishmayman.

Gulayim bilan suhbatlashayotib, undagi shijoat, intilish, favqulodda xotira, ko‘tarinki kayfiyat, jo‘shqinlik va qat’iyatga havasim keldi. Qahramonimiz yoshlarga, xususan, yosh qalamkashlarga berilayotgan imkoniyat va yaratilgan sharoitlardan mana shunday unumli foydalanyapti. Siz-chi, aziz yoshlar?


Ma’mura ZOHIDOVA,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

YODNOMA



SURAT

“O‘zbekiston madaniyati” gazetasida ish boshlaganimning dastlabki kunlari edi. Bir kuni ayollar biri olib, biri qo‘yib shu gazetada ishlaydigan Sodiq ismli yigitni maqtab ketishdi. Tabiiyki, hali ko‘pchilikni yaxshi tanimaganim uchun gap kim haqida ketayotgani bilan qiziqdim. Shunda gazeta muxbiri Munira opa Sobirova “Ertaga ko‘rasiz, juda kelishgan yigit, bizning surat-kashimiz”, dedilar. Ertasi kuni ishga borganimda xodimlar kulib turgan, baland bo‘yli, qirraburun, sochlari biroz jingalak yigit bilan qizg‘in suhbatlashayotgandi. Bu o‘sha suratkash ekan.



АДАБИЁТИ ВА САНЪАТИ
ва Узбекистон ССР Маданият министрлигининг органи

21 июль 1981 г.

Хурматли Содиқ МАҲКАМОВ!

Газетамиз саҳифаларида эълон қилинаётган кўпгина фотосуратларингиз жамоатчилик томонидан илиқ кутиб олинмоқда. Айниқса адабиёт, санъат ва маданият арбобларининг бадиий фотолари яхши тассурот қолдирянти. Шу хизматларингизни инобатга олиб, редколлегия қарорига биноан редакция коллективи ва барча газетхонлар номидан сизга ташаккурнома эълон қиламиз.

Сизга яна ҳам ёркин бадиий фото лавҳаларни яратишда муваффақиятлар тилаймиз.

Бош муҳаррир: Аскад МУХТОР

Тел. 33-52-91, 33-43-65.

14 май 1982 г.

Keyinchalik, birga ishlash jarayonida tushundimki, Sodiq Mahkamov o‘ta madaniyatli, oilasiga, kasbiga, hamkasblariga mehri baland, qalbi chandon go‘zal inson ekan. Salkam chorak asr davomida Sodiq akaning suratlari nihoyatda jozibali, betakror ekaniga guvoh bo‘ldim. Men fotosuratchining ishiga baho berishga qodir mutaxassis emasman, lekin Abdulla Qahhor ta’biri bilan aytganda, “...quymoqning mazasini yaxshiroq bilaman”. Boz ustiga, Ravil Albekov, Sunnat Nurmuhamedov, No‘mon Muhammadjonov, ulardan biroz keyin bu safga qo‘shilgan Abdug‘ani Jumayev kabi o‘z ishining ustalari Sodiq akaning nomini hurmat bilan tilga olganlari, ijodiga tan berganlari haqida eshitganman.

To‘g‘ri, Sodiq aka ishlagan davrda mahoratli fotosuratchilar oz emas edi. Lekin bu inson obyektni shunchaki suratga tushirib ketavermasdan, qarshisida turgan har bir shaxsga, manzaraga san’atkorona ichki sezgi, teran nigoh bilan yondashardi. Unda muhim lahzalarni ilg‘ash hissi kuchli edi. Tom ma’noda ijodkor fotosuratchi edi. Bu – go‘zal san’at, zero, ana shu daqiqalar hamisha odamlarni xursand qilaveradi”.

O‘sha kezlarda yetuk fotosuratchi sifatida nom qozongan Sodiq Mahkamov o‘zi ishlagan tahririyat jamoasi va u kishini yaqindan bilgan-tanigan odamlar o‘rtasida kamtarligi, kamsuqumligi, muomala madaniyati bilan ham ajralib turardi. Bu insonning har bir surati bitta xabar yo maqolaga teng edi. Suratlarida rassom va yozuvchining mahorati uyg‘unlashib ketardi. Shu o‘rinda “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida uzoq yillar bosh muharrir bo‘lib ishlagan Ahmadjon Meliboyevning qahramonimiz haqidagi fikrlari e’tiborga loyiq: “Sodiq Mahkamovning mahorati shunda ediki, u portret chizuvchi rassom kabi suratga olinayotgan kishining muhim “nuqta”sini topa olardi. Tabiiy nigohi, tabiiy holati, tabiiy o‘zligini ko‘rsatishga harakat qilardi. Va bunga erishardi ham. Uning suratlarida soxtalik yo‘q, hayotning naq o‘zi bor”.

Navqiron 17 yoshida gazetaga ishga kelgan Sodiq Mahkamov ushbu sohada



Sodiq aka tasmalarga muhrlagan taniqli yozuvchi-shoirlar, mashhur san’atkorlar, ijodkorlar, oddiy zamondoshlarimizning qiyofalari, yurtimiz manzaralari fikrimiz dalilidir.

Mohir suratkashning qahramonlari orasida G‘afur G‘ulom, Yusufjon Hamdam, Maqsud Qoriyev, Oybek va Zarifa Saidnosirova, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Zulfiya, Sharof Rashidov, Asqad Muxtor, Said Ahmad, Habibiy, Shukur Burhon, Komil Yashin, Sora Eshonto‘rayeva, Nabi Rahimov, Rahmat Fayziy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi o‘sha davrdagi deyarli barcha mashhurlar-u taniqlilarni ko‘rish mumkin. Bir so‘z bilan aytganda, Sodiq akaning suratlari har qanday maqola-yu suhbatga, reportajga, oddiygina xabarga ham “jon kiritib” yuborardi. Ustaning suratlari faqat o‘zi ishlaydigan nashrdagina emas, turli gazeta-jurnallarning birinchi sahifasida tez-tez bosilib turardi. U kishi foto olamida san’at yaratishdan charchamasdi. Sodiq akaning “Umrim mazmuni” nomli xotira kitobidan o‘rin olgan quyidagi fikrlarda uning fotografiya san’atiga munosabati ixcham va lo‘nda tarzda o‘z ifodasini topgan: “Fotografiya bu – ummon, chek-chegarasi yo‘q fazo. Bizgacha ham fotograflar o‘z san’atlari bilan mo‘jizalar yaratishgan... Fotografiya – bepoyon san’at, unda soniyalarning, daqiqalarning mingdan biri aks etadi. qariyb yarim asr barakali ijod qildi. Milliy jurnalistikamiz rivojiga qo‘shgan hissasi munosib taqdirlanib, “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist” faxriy unvoniga sazovor bo‘ldi.

Sodiq aka nafaqa yoshiga yaqinlashgan bo‘lsa ham, hali kuch-quvvatga to‘la, har qanday topshiriqni o‘z vaqtida bajarib, gazetaning sifatli nashr etilishiga hissasini qo‘shib kelayotgan edi. Biroq ayrim sabablar tufayli u kishi nafaqaga chiqib ketishga majbur bo‘ldi. Eng achinarlisi, hech kim ustaning boy ijodiy bisoti bilan qiziqmadi, noyob kadrlar muhrlangan tasmalari, suratlari har joyda qolib ketdi. Bu davrga kelib oq-qora suratlar bilan ishlaydigan ijodkorlarga e’tibor kamaygan edi. Sodiq Mahkamovning qadrdon fotoapparati, maxsus asbob-uskunalar keraksiz bo‘lib qoldi. Gazeta muassisi hisoblangan Madaniyat vazirligi u kishining noyob merosini kompyuter xotirasiga ko‘chirish haqidagi tahririyat iltimosini e’tiborsiz qoldirdi.

Darhaqiqat, taniqli fotojurnalist, ajoyib inson Sodiq Mahkamov ibratli hayot yo‘lini bosib o‘tdi. Bu insonning chap qo‘lida fotoapparat tutib, o‘ng qo‘lini ko‘ksiga qo‘ygan mayin tabassumli yorug‘ siymosi barchamizning xotiramizda bir umrga muhrlanib qolgan.

Gulchehra UMAROVA

ARSLON YELKASIDAGI XAZINA

Tarixiy-badiiy qissadan parcha

Inomjon ABDINAZAROV



BUXORO AMIRINING TAHDIDI

1917-yil 7-aprel. Buxoro.

Odamlarning yuz-ko‘zi qo‘rquv va tahlika tumaniga o‘ralgandi. Osmonni qoraga burkagan bulutlar hamda allaqayerlardadir burqsiyotgan tutun tez orada mudhish bir voqelik ro‘y berishini bashorat qilayotgandek.

Shaharda qadimchilar va jadidlar o‘rtasida tortishuvlar, ixtilofiy ziddiyatlar xufyona avj olgan, amir ikki o‘t orasida nima qilarini bilolmay halak, kunora gunohkor deb topilganlar omma oldida sazoyi qilinib, boshi tanasidan judo qilinar, kiyimi yirtilib, orqa badanining terisi titilib ketguncha savalanardi.

Dumaloq mis gardishli ko‘zoynak taqqan, o‘rta bo‘yli, sersoqol, boshiga jigarrang salla o‘ragan, egniga girdi bo‘ylab qizil rangdagi chiroz yugurtirilgan yashil beqasam to‘nli 42-43 yoshlardagi bir kishi – Mahmudxo‘ja Buxoroning baland minoralariga termilgan ko‘yi xayol surib o‘tiribdi.

U o‘zining keyingi ikki kun ichida qilgan ishlarini bir-bir sarhisob qilib chiqmoqda. Xayolidan Buxoro amiri rus konsuli Miller bilan kelishib, mamlakatda o‘zgarishlar qilish uchun manifest e’lon qilishga qaror qilishi, isyon ko‘tarilmasligi uchun Samarqandga maktub yuborilishi va shu maktubga asosan Chartuyev, Gartsfild, mulla Haydarbek, Isohorov va o‘zining Buxoroga jo‘natilishi bir-bir o‘tdi.

Keyin vokzalda shaxsan rus konsuli Millerning o‘zi kutib oldi va manifestni o‘qitib, fikrini so‘radi, so‘roqqa tutib, tahdid qildi... Bu ishlardan uning ko‘ngli biroz xijil tortdi.

Bir necha soat muqaddam Rahimxoniy mehmonxonasida manifest e’lon qilinganidan so‘ng amir ham barcha ila qo‘l berib ko‘rishib, salla va chopon kiygan uch musulmon bilan salomlashishni lozim topmaganini eslab, buni ham yomonlikka yo‘ydi. U go‘yo o‘pqonning o‘rtasiga tushib qolgandek edi.

Mahmudxo‘ja minora tepasiga in qurgan laylakni mahzun kuzatdi. Keyin unga mahliyo bo‘lib qoldi. “Shu laylak ham mendan baxtiyor”, deb xayol qildi u.

Hamrohi Mulla Haydarbek kelib, uni saroyga chaqirtirishganini aytganida yuragi shuv etib ketdi. Ketayotib, hozir uni nima deb so‘roqqa tutishlarini, o‘zi nima deyishini taxminan chamalab bordi. Arkning orqa tarafida panjaralar orasida sulayib yotgan mahbuslarga ko‘zi tushdi. Amir otxonasidan chiqayotgan axlat maxsus quvurlar orqali ularning boshidan quyilardi.

Qo‘lansa hid ko‘ngilni behuzur qiladi. Mahbuslar allaqachon bu ko‘rgulikka ko‘nikkan shekilli, barchasi beparvo, o‘tgan-ketganga mahzun va loqayd termiladi.

Mahmudxo‘ja g‘ijinib ketdi. Ba’zi birlariga termilib, ularning ko‘zlaridagi mungdan ma’yus tortdi. Battar ezildi. Minglab mahbuslar bitxona va kanaxonalarda o‘limini kutib yotishibdi. “Ular nahotki, shunchalik beshafqat qismatga mahkum gunohkorlar bo‘lsa?” deb o‘yladi.

Mahmudxo‘ja mahbuslarga qaramaslikka intilib, ulardan ko‘zlarini olib qochdi. Shu topda bundan ancha yillar oldin bo‘lgan voqealarni xotirladi. Umri imom-xatiblik bilan o‘tgan otasi Sultonxo‘ja vafot etayotib, hayotining so‘nggi soniyalarida unga avlodlari zimmasiga buyuk vazifa yuklatilgani va allaqanday xazinaning siri haqida so‘zladi. Otasi zo‘rg‘a nafas olar, aftidan uning qat’iyatiga biroz shubha qilayotgandek edi.

Padari buzrukvori xazina sirining nihoyatda maxfiyligini, uni faqat millat, yurt zavolga yuz tutmog‘i tayin bir paytda ishlatish, o‘shanda ham ulusning eng ishonchli zabardast o‘g‘loniga berish va u xazinani faqat yurt ozodligi va fuqaro dasturxoni to‘kinligi yo‘lida tasarruf etishi joizligi haqida qayta-qayta so‘zlarkan, so‘nggi lahzalarida “Sherdor” deyishga ulgurdi xolos. Mahmudxo‘jaga cholning yostig‘i tagida qolgan, u umr bo‘yi qo‘lidan qo‘ymagan eski bir kitob yodgorlik bo‘lib qoldi.

Dastlab u otasi nima haqida gapirgani, neni so‘zlaganini unchalik idrok qilolmadi. U esankirab qolgandi. Boshiga tushgan bu musibat o‘sha kezlarda qandaydir xazina to‘g‘risida o‘ylashiga izn bermasdi.

Keyinchalik taqdir hukmiga ko‘nikib, o‘zini biroz qo‘lga olgach, qiblagohining so‘nggi lahzalardagi holati va gaplarini xotirlarkan, ko‘nglida allanechuk alag‘dalik paydo bo‘ldi. Padarining so‘nggi vasiyatini qanday qilib bo‘lsa ham bajarmog‘i lozim edi. Keyingi yillarda umrini asosan o‘qish-o‘rganishga sarf etdi.

Samarqandda, Buxoroda tahsil oldi. Zamonasining buyuk insonlari suhbatiga musharraf bo‘ldi. Sharq mamlakatlari, Peterburg, Moskva shaharlariga sayohatlar qildi. Ammo bir lahza ham zimmasidagi mas’uliyatni unutmadi. Izlandi va xazina yashirilgan joyni taxminan bo‘lsa-da aniqladi.

* * *

Mahmudxo‘jani amirning huzuriga olib kirishdi. Zarbof to‘nda, taxtda savlat to‘kib o‘tirgan Amir Sayid Olimxon anchagina semirgan va bundan aziyat chekayotgani yuz-ko‘zidan bilinib turardi.

Saroyda undan tashqari Nasrulla Qushbegi, amirning kuyovi Asatullo Guvanar Urganji, negadir xalq orasida “Jallodbek” laqabi bilan tanilgan bosh xazinabon Imomqul bor edi. Mahmudxo‘ja hukmdorga ta’zim qilib, salom berdi.

– Vaalaykum assalom, keling Mahmudxo‘ja, – amir unga joy ko‘rsatdi. Taxt sohibining ko‘zlarida ayyorona tabassum zuhur bo‘ldi.

– Qulluq, amirim, davlatingizni Alloh taolo bundan ham ziyoda qilg‘ay.

– Nafaslari muborak, insholloh. Suhbatingizga anchadan beri chanqoqligimiz bor edi.

– Ko‘p xayrli ishlarni boshlabsiz, Buxoroda keng bir islohoti sha’riya joriy etmoq qaroringizni qutlayman. A’lo hazratning bu baxshishi shohonalari, albatta, xaloyiqning taraqqiy va osoyishiga sabab bo‘lur. Lekin... mug‘loq sur’atda Samarqand xalqining Buxoroga fasod nashr qilmoqlaridan xavfsiramog‘ingizga sabab yo‘q edi, deb o‘ylayman. Kamina endilikdagi sobiq Turkiston gubernatori Kuropatkinga bul xususindagi murojaatingiz va uning Samarqand voliysiga xavf qo‘zg‘olon ehtimoli yuzasindan yozgan xatlarini nazarda tutmoqdaman.

– Mufti hazratlari, – amir biroz sukut saqlab, yana so‘zida davom etdi, – Rusiyada bo‘lgan fevral inqilobi hammamizni shoshirib qo‘ydi. Taxt egasi Romanovlar sulolasi yiqitildi. Oxirgi hukmdor Nikolay II taxtdan voz kechdi. Bunday bo‘lishini kim ham o‘ylabdi, deysiz? Fikri ojizimizcha, Kerenskiy boshliq muvaqqat hukumatning ustunlariga ham darz yetajak. Qolaversa, shu kunlarda birodaringiz Munavvar qori hazratlari Toshkentda “Sho‘royi islomiya”-ning qurultoyini chaqirmish. Meni aytdi dersiz, katta bir xunrezlik bo‘lishi tayin. Bunday vaziyatda kamina Buxoroga chetdan isyon oralamog‘ini istamaymen.

– Kaltafahm qulingizni ma’zur tuting, amirim.

– Xo‘p. Endi bu gaplarni qo‘yaylik. Sizni nega hamrohlaringizdan ayurub, bu yerga chaqirtirganimizni fahm etgan bo‘lsangiz kerak?

Mahmudxo‘ja bilmayman, degandek yelka qisish bilan kifoyalanmoqchi edi, biroq amirning o‘tkir qarashiga bardoshi yetmadi.

– Janob Miller kaminani vagonda anchayin bo‘lmag‘ur gaplar bilan so‘roqqa tutdi. Hazratim, shuni nazarda tutayotgan bo‘lsangiz, bu gumrohlikdan o‘zga narsa emas.

– Gumrohlik deyursizmi? – amirning ovozi shiddatli tus oldi. – Bu talab, bu bizning talabimizdur. Ayting, bizning buyuk ganjinamiz qayerga yashirilgan?

– Janob Miller ham menga shunday tahdid qildi, – dedi u behol tovushda.

Savol-javobga Nasrulla Qushbegi ham aralashdi:

– Bizni aldash mumkin emas. Ulug‘bek Mirzo shogirdlari tomonidan yoshurilgan Sohibqiron Temur xazinasining sizdaligini bilurmiz. Tovlanmoqni bas qiling. Yoki yozgan “Padarkush” dramangizning nomi nimaga ishora qilishini, chiqarturgan “Oyina” jurnalingizning birinchi soni muqovasini nega Sherdor madrasasi peshtoqidagi suvrat bilan bezaganingiz va Xo‘qandboy Abduxoliq o‘g‘li, soatchi Badriddinlar bilan qidiruv ishlari olib borganingizni eslataylikmi? Yoinki Turkiston xaritasini tuzib bosmadan chiqarganingiz, jug‘rofiyaga oid asarlar bitganingiz aslida ne maqsadni ko‘zlaganingizdan darak bermasmi? Farg‘onalik ulamochilar bilan ham bog‘lanib, bu masalada fikrlashganingiz bizga ma’lum.

Mahmudxo‘janing oyoqlaridan mador qochdi.



– Qo‘ying, hazratim, bu eski gaplarni. Barchamiz o‘z farzimizni bajaraylik. Yoshlarni o‘qitmoq bizning bo‘ynimizdagi qarz, ilm sababi izzati dunyo va sharofati oxiratdir. Siz shu yurtning boshi bo‘lub, farzandlarimizga dunyo eshiklarini ochib bering. Xalqni zulukdek so‘rib kelayotgan bosqinchilarni quvib solmoqqa qaror bering.

– Mahmudxo‘ja, – amirning qahrli tovushi yangradi, – biz sizdan boshqa narsani so‘radik. Ulus orasida “Amiri ma’sum” nomi ila mashhur bo‘lgan bobokalonimiz, mang‘itlar sulolasining a’losi Amir Shohmurod sizning bobongiz qori Niyozxo‘jani Urganjdan Samarqandga olib kelgani, umrining so‘ngida esa 22 yoshli o‘g‘li Amir Sayyid Haydarga inonmay, xazina haqidagi sirni o‘ziday xudojo‘y qori Niyozxo‘jaga ishonganini bilurmiz.

– Baytul mol bo‘shab qoldimi, a’lo hazratlari? – Mahmudxo‘ja ters gapirmoqqa chog‘langan bo‘lsa-da, keyin biroz sukut saqlab, yanada mahzunlashdi. – Amirim, siz adashayotganingizga kafilmen. Xohlang o‘lduring, xohlang so‘ying, jonim sizga nisor o‘lsin. Baski, o‘zim bilmagan narsam haqinda gapirmagim nojoiz. Tasarrufimda bo‘lmaganni sizga berolmasman, deb qo‘rqaman. Ulamochilarga kelsak, ular ham begona emas, shu jafokash xalqning botir o‘g‘lonlari. Ular bilan turli xil sabablar bilan uchrashganim, yurt ozodligi yuzasidan aloqada bo‘lganimiz rost. Buning sababi – maqsadimiz mushtarakligidadur.

– Maqsadimiz mushtarakligi? – Amir qah-qah otib kuldi. Keyin ovoziga yana qahr indi:

– Bizning maqsadimiz-chi? Biz ona tuprog‘imizdan bosqinchilarni quvib solishni istamaymizmi? Zotan, bu zaminda bunga salohiyati ham, qudrati ham yetguvchi inson yolg‘iz biz emasmi? Baski, xazina ham saltanat egasida bo‘lmog‘i lozimdur. Kerak bo‘lsa, bugunoq Sherdorning kulini ko‘kka sovururman. Kerak bo‘lsa, Samarqandni yoqurman, lekin alhol xazinani sizdan olurman. Yaxshilikcha uni menga bering, men xalqqa qaytarurman.

Mahmudxo‘ja xazina menda emas, deyish bilan o‘zini oqlay olmasligini fahmladi. Shu bois sipolik bilan so‘zida davom etdi. Uning maqsadi amirga ta’sir etmoq, ojiz joyidan tutmoq edi.

– Amirim, siyosat bir buzuq xotin kabidir. Hech bir davlat o‘z-o‘zidan mustamlakasini bo‘shatmoqni istamas. Tarix ingroqlariga quloq tuting. Buxoro taxtida mang‘itlardan burun ashtarxoniylar, shayboniylar, temuriylar, chig‘atoylar, saljuqiylar, g‘aznaviylar, somoniylar... hukmronlik qilishdi. Hammasi oxir-oqibat tanazzulga yuz tutdi. Boisini hech o‘ylab ko‘rganmisiz? Hazrati oliylari, ko‘ryapsizmi, saltanatlar ham, shaxslar ham muqim emas. Lekin raiyatga qilingan yaxshilik abadul-abad qolajak. Siz buyuk sulola farzandisiz. Bu suloladan ma’sumlar ham chiqqan, qassoblar ham. Amirim, bu ikki xislat sizning tomirlaringizda ham jo‘sh urmoqda. Ma’sumlikni fuqarolaringizga, qassoblikni dushmanlarga ko‘rsating.

– Dushmanni yakson etishga qudratimiz yetur.

Mahmudxo‘janing lablariga istehzo sizib chiqdi.

– Bir paytlar bobokaloningiz, qabrlari nurga to‘lgur Amir Muzaffarxon ham oq otda Peterburgga kirib boraman, degan ekanlar...

– Haddingizni biling! – amirning qahrli ovozi saroyda aks sado berdi.

Mahmudxo‘ja unga e’tibor bermay so‘zida davom etdi.

– Amirim, o‘zingizni chetdan kuzatib ko‘ring, bu nechog‘li zavqli ekanini tuyasiz. Shunday muhim davlat ishlari qolib, siz mendan aslida yo‘q narsani so‘rab turishingiz joizmikin? Nahotki, shuncha katta davlat va behisob boyliklar egasi bo‘lgan hukmdor bir faqirdan afsona boylikni tilab tursa?!

Amir unga qattiq tikilib turardi.

– Bu nobakor qulingizning shakkokligini darig‘ tuting. Ammo siz hazratning hali e’lon etilmagan manifestingizni janob Millerning qo‘lida ko‘rdum. Buni sizning ojizligingiz deb tushunaylikmi yoki Rusiya konsulining tadbirkorligi debmi?

Amirning qoshlari chimrilib, ko‘zlari darg‘azablikdan yondi, qo‘llari mushtlanib, yer tepindi. Keyin birdan bo‘shashdi.

– Tilingizga ehtiyot bo‘ling, Behbudiy hazratlari... Bo‘yningizdagi boshingiz ortiqchalik qilmoqda, degan ehtimolim bor! Biz, albatta, bosqinchilarni yurtimiz sarhadlaridan quvib chiqarurmiz, inshoolloh. Men sizga buni va’da beraman.

– Hazratim, maylimi, sizga rivoyat so‘zlasam?

Amir ixtiyorsiz bosh irg‘adi.

– Qadim zamonda chin muzofotida Chung‘ichin degan zot bo‘lgan ekan. U sayohat qilib yurib, adashib, qabristonga kirib qolibdi. Qarasa, bir mozorning yonida yosh xotin qo‘lida yelpig‘ich bilan yelpib turibdi. Chung‘ichin yosh bonudan bu ajib harakatining sababini so‘rabdi. Xotin qizaribdi, bo‘zaribdi, boshini egib olibdi, ammo zinhor bir so‘z demabdi.

Shunda o‘sha yerdan o‘tib ketayotgan bir juvon sayyohga oq yelpig‘ichli ayol haqida gapirib beribdi. “Qabr kanorinda ko‘rganingiz Lu ismli xonimdir, – debdi u. – Xonim hozir erining mozorini yelpiyapti. Buning sababi, Lu xonim turmush o‘rtog‘ining joni uzilayotganda undan so‘ng yashamayajagini, yashasa ham boshqa birovning xotini bo‘lmoqqa aslo ro‘yi rizo ko‘rsatmasligini aytadi. Ammo eri: “Bonu, bunday ahd etmang, faqat mozorim ustidagi tufroq qurigunga qadar mani unutmaslikka ahd etsangiz kifoya”, deydi. Lu xonim buning uchun mahkam ahd etadi. Ammo yostiqdoshining vafotidan uch kun o‘tmay, ta’ziyaga kelgan yosh yigitni yoqtirib qoladi. Yigit ham unga ko‘nglini ochadi. Shundan buyon bu ayol yelpig‘ich olib, eri qabrining tufrog‘ini quritmak va yosh yigit bilan tezroq birga bo‘lmak harakatida”.

Oraga bir muddat o‘ng‘aysiz sukut cho‘kdi.

– Amirim, siz meni qo‘rqitaman deb zahmat chekmang, – dedi Behbudiy dadil ohangda. – Xudoyimning bizga yuboraturg‘on o‘lumiga doim muntazirman. Har holda o‘lim birdur, ikki ermas.

– Siz bilmaysiz, – Amir Olimxon ham chuqur so‘lish oldi. – Meni millatni o‘ylamaydur, deb xayol qilasizmi? Sizni ham qirimlarning G‘aspiralisi, qozon tatarlarining Qayum Nosiriysi, usmonli turklarning Ahmad Midhati singari ulus muallimi deb bilurman. Ammo siz mani bilmayursiz. Menda dard yo‘q deb o‘ylaysiz. Bu yoqda bosqinchilar, bir yoqda qadimchilar, yana bir yoqda esa siz kabi jadidlar... Kamina uch olovda jizg‘anak bo‘layotgan odamman. Kaminaga hech bir xazina kerak emas. Ammo u dushmanlarim qo‘lida menga qilich bo‘lib ko‘tarilishini istamasman.

Shu payt mahramlardan biri kirib, saroyga Rusiya konsuli Miller kelganini aytdi. Amir shoshib so‘zini yakunladi:

– Mayli. Hozircha xazina sizda turgani ham tuzuk. Ammo minba’d unutmangki, bugundan ortingizdan ikki daf’a soya paydo bo‘lur. Yo qochmak, yo xazinani kimgadir bermak, yoinki o‘z bilganingizcha tasarruf etmak istasangiz, boshingizdan ajralursiz. Bu – amirlik so‘zim!

TARIX VA TAQDIR

MA’RIFATPARVAR FAYZULLA XO‘JAYEV

Mamlakatimizda XX asrning boshida millatimiz ravnaqi yo‘lida fidoyilik ko‘rsatgan taraqqiyparvar ajdodlarimizning ilg‘or g‘oya va qarashlarini tadqiq etish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojidagi o‘rni va rolini o‘rganish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning “Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to‘g‘risida” qarori qabul qilindi. Aynan Buxoro shahridagi tarixiy maskan – Xo‘ja Gulrez ko‘chasida joylashgan Hovli Poyon majmuasida “Jadidlar merosi davlat muzeyi” tashkil etilishi bejiz emas. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad “Jadidlar merosi davlat muzeyi”ni tashkil qilish orqali o‘zbek



yoshlariga ma’rifatparvar jadid ota-bobolarimizning boy merosini o‘rgatib, Vatanimiz va jahon tarixidagi muhim o‘rni va ahamiyatini, milliy istiqlolimizning ma’naviy asoslarini yaratishdagi hissasi va fidoyiliklarini haqqoniy yoritish hamda xalqimizga keng targ‘ib qilishdir.

Shu nuqtayi nazardan jadidlik harakati vakillari hayoti va faoliyatini arxiv manbalaridagi yangi ma’lumotlar asosida o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Turkiston, Xorazm qatori Buxoro hududlarida shakllangan jadidlik harakati vakillaridan bir qator davlat arboblari yetishib chiqdi. “Bu ko‘hna yurtda tug‘ilib ijod qilgan Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Sadriddin Ayniy singari ko‘plab ma’rifat fidoyilarining ibratli hayoti bugungi kunda ham yurtimizda yangi jamiyat barpo etish, barkamol avlodni tarbiyalash, ma’naviyatimizni yuksaltirishda bizga beqiyos kuch bag‘ishlab kelmoqda”.

Sobiq sovet ittifoqi davrida bir qator o‘zbek ma’rifatparvarlari va taraqqiyparvarlari milliy davlatchilikni barpo etish yo‘lidagi xatti-harakatlari uchun qatag‘on qurboniga aylandi. Ular qatorida 13 yil O‘zbekiston SSR hukumatini boshqargan Fayzulla Xo‘jayev ham millat taraqqiyoti yo‘lidagi harakatlari sabab tazyiqqa uchradi. “Xalq dushmani” tamg‘asini olgan bu kabi fidoyilarning nafaqat o‘zi, balki oilasi, farzandlari ham azob-uqubatga giriftor qilingan, qora otliqqa, aybsiz aybdorga chiqarilgan.

Fayzulla Xo‘jayev otasidan qolgan boylikni yangi usul maktablari ochish va “Yosh buxoroliklar” partiyasining siyosiy faoliyatini moddiy qo‘llab-quvvatlashga sarfladi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil qilinganidan so‘ng barcha sohalarda o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Qisqa muddat ichida Buxoroda demokratik islohotlar joriy qilindi. Hukumat siyosatining muhim yo‘nalishi bo‘lgan aholi maishiy turmushini yaxshilash bilan bog‘liq ishlar shaharsozlik madaniyatining rivojlanishiga ham turtki bo‘ldi. Hukumat Buxoro ko‘chalariga tosh yotqizish, transport yo‘llarini tartibga keltirish borasida bir qator tadbirlarni amalga oshirdi.

Fayzulla Xo‘jayevning yangi usul maktablari ochish uchun qilgan ishlari uning ma’rifatparvarlik va ilm-fan taraqqiyotiga qaratilgan asosiy faoliyatlaridan biridir. O‘sha davrning jadidlik harakati tarafdorlari sifatida Xo‘jayev va uning hamfikrlari an’anaviy ta’lim tizimini zamon bilan hamnafas etish, yosh avlodni yangi ilmiy va madaniy bilimlar bilan qurollantirish maqsadida jiddiy ishlar olib bordi.

Buxoro ijtimoiy infratuzilmasini yo‘lga qo‘yish maqsadida Berlin va Moskva shaharlaridan tibbiy jihozlar keltirilib, shifoxonada rentgen qiluvchi, ko‘z kasalliklarini davolovchi va boshqa yangi tibbiy xonalar tashkil qilinadi. Fayzulla Xo‘jayev asos solgan yangi maktablar an’anaviy madrasalar bilan ta’lim metodlari va yo‘nalishlari jihatidan farqlanar edi. Jumladan, ularda zamonaviy fanlar, xorijiy tillar hamda fanlarni o‘qitishning yangi pedagogik usullari joriy etilgandi.

Fayzulla Xo‘jayevning ushbu faoliyati nafaqat ta’lim sohasiga yangilik kiritish, balki milliy uyg‘onish va siyosiy mustaqillikni qo‘llab-quvvatlashga ham xizmat qilgan. U o‘z faoliyati orqali O‘zbekistonning ijtimoiy-madaniy hayotidagi muhim o‘zgarishlarga turtki berib, bu boradagi tashabbuslari bilan yanada taniladi. Yangi maktablarning tashkil etilishi nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchilar va ma’rifatchilar uchun ham zamonaviy bilim olish, o‘z sohasida malaka oshirish imkoniyatlarini yaratdi. Ayni ta’lim islohotlarida Abdurauf Fitratning ham hissasi katta edi. Fayzulla Xo‘jayevning taklifi bilan Toshkentda pedagogik va ijodiy faoliyat bilan qizg‘in shug‘ullanayotgan Abdurauf Fitrat Buxoroga keladi. Buxoro xalq dorilfununi ochilishi to‘g‘risida tarixiy qaror qabul qilindi.

Ma’lumki, mamlakat uchun oliy ma’lumotli mutaxassislar zarur edi. Yangi ochilgan Toshkentdagi Turkiston davlat universitetidan esa Munavvar qori Abdurashidxonov boshchiligidagi o‘zbek o‘qituvchilari siqib chiqarilgan, mahalliy yoshlar uchun turli-tuman to‘siqlar avjiga chiqmoqda edi. Shunday tahdidli davrda ma’rifatparvarlar birlashib, Toshkentdagi “Ko‘mak”, Buxoro Xalq jumhuriyati homiyligida ellikdan ortiq, iqtidorli yoshlarni Germaniyaga o‘qishga yubordilar. Bu ezgu tashabbusning boshida Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, ayniqsa, Fayzulla Xo‘jayev jonbozlik ko‘rsatgan edi.

Fayzulla Xo‘jayev taqdiri o‘ziga fikrdosh ziyolilar bilan bir xil kechdi. 1937-yil qamoqqa olingach, u “hokimiyatga qarshi aksilsovet o‘ng trotskiychi blok faoliyatiga qo‘shilgan”lik hamda “Milliy ittihod” yashirin tashkiloti faoliyatiga rahbarlik qilganlik, “bosmachilik” harakati va qo‘rboshilarni qo‘llab-quvvatlaganlik, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy va boshqa o‘zbek ziyolilariga g‘amxo‘rlik ko‘rsatganlikda ayblandi.

Yirik siyosatchi va davlat arbobi nomini abadiylashtirish uchun u istiqomat qilgan uyga Vazirlar Mahkamasining “2017-2027-yillarda qayta tashkil etiladigan davlat muzeylari to‘g‘risida”gi qarori asosida bu go‘sha “Boy savdogar xonadoni uy-muzeyi” nomi bilan faoliyat yurita boshladi. Keyinchalik hukumatning tegishli qaroriga muvofiq, majmua “Fayzulla Xo‘jayev uy-muzeyi” deb qayta nomlandi. Ayni paytda u yerda besh yuzdan ziyod eksponat bor. Ta’kidlash joizki, Fayzulla Xo‘jayevning siyosiy va ma’rifatparvarlik faoliyati o‘tgan asrning boshlarida O‘zbekistonning siyosiy maydonida sodir bo‘lgan murakkab va keskin o‘zgarishlar davriga to‘g‘ri keladi. U iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni hal etishda O‘zbekiston manfaatlarini imkon qadar himoya etish uchun barcha kuchini safarbar qilgan edi. Ma’rifatparvar – ma’rifat uchun kurashuvchi; ilm, bilim chirog‘ini yoquvchi; ma’rifat homiysi va tarafdori demakdir. Fayzulla Xo‘jayev g‘oyat og‘ir sharoitlarda ishlab, millatning ma’naviyatini yuksaltirish, uning qadr-qimmatini e’zozlash borasida katta ishlarni amalga oshirgan edi.

Bugungi Yangi O‘zbekiston sharoitida Fayzulla Xo‘jayev kabi insonlarning tarixiy xizmatlarini yodga olish har jihatdan foydali bo‘ladi. Jadidlarning bizga meros bo‘lib qolgan ilm-u ma’rifatga undovchi asarlari va g‘oyalari hozirgi davr manfaatlariga hamohang bo‘lsa, ularning hayoti va ijodi bilan chuqurroq tanishish yosh avlodning millatparvar bo‘lib ulg‘ayishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Hayot QODIROV,
Nizomiy nomidagi TDPU
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektori

XOTIRA AZIZ

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Alixo‘jayev Shomansur – 1888-yili Marg‘ilonda tug‘ilgan. Namangandagi yangi usul maktabida o‘qigan. 1918-yili Skobelev shahrida partiya safiga qabul qilingan. Skobelev musulmon ishchilar Soveti raisi, Skobelev uyezd-shahar partiya komiteti a’zosi, uyezd-shahar partiya komiteti byurosi a’zosi bo‘lgan. 1920-yillarda “Milliy ittihod” tashkilotida faoliyat yuritgan. Marg‘ilon uyezd-shahar revolyutsion komitet raisi, Sirdaryo oblast ijroiya komitet raisi o‘rinbosari, 1923-yil 11-apreldan Farg‘ona oblast revolyutsion komitet raisi lavozimlarida xizmat qilgan. O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi Boshqarmasiga, 1931-yildan O‘zbekiston Respublikasi Bosh yo‘llar qurilishiga rahbarlik qilgan. 1936-yil 11-iyunda partiyadan o‘chirilgan. 1937-yil sentyabrda qamoqqa olingan. 1938-yil 4-oktyabrda SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining Toshkentdagi sessiyasi yig‘ilishi qaroriga binoan Shomansur Alixo‘jayev otuvga hukm qilingan. Hukm o‘sha kuni ijro etilgan.

QATAG‘ON QURBONLARI

Niyozbekov Rustambek – 1894-yili Toshkentda tug‘ilgan. Eski maktabda savod chiqargan. 1918-yili toshkentlik taraqqiyparvarlar bilan birga 8 oylik o‘qituvchilar kursini tashkil etgan. “Ittihod va taraqqiy”, “Milliy ittihod” tashkilotlarida faol xizmat qilgan. 1921-1922-yillari Turkiston ASSR maorif xalq komissarligi xo‘jalik bo‘limi rahbari bo‘lgan, maorif komissarligi Vaqf bo‘limida faoliyat yuritgan. Munavvar qoriga yaqin kishi sifatida 1930-yil boshlarida qamoqqa olingan. 1932-yil 13-aprelda Novosibirskda vafot etgani haqida ma’lumot bor.

Saidaliyev Saidsulton – 1896-yili Qo‘qonda tug‘ilgan. Eski maktabda, keyin rus-tuzem maktabida ta’lim olgan. 1905-yili notarius idorasida mehnat faoliyatini boshlagan. Toshkentdagi taraqqiyparvarlar partiyasining a’zolaridan biri sifatida Ukrainaning Xarkov, Poltava, Kiyev shaharlarida bo‘lib, bu shaharlarga badarg‘a etilgan turkistonlik mardikorlar hayoti bilan qiziqqan. Qo‘qonda Turkiston muxtoriyati tugatilgach, Qo‘qon shahri va uyezdining musulmon mehnatkashlari Soveti rais o‘rinbosari sifatida faoliyat ko‘rsatgan. 1918-yil aprelida kompartiyaga qabul qilingan. 1919-1920-yillarda Toshkentdagi partiya maktabida o‘qituvchi va tarjimon bo‘lib ishlagan. Turkiston ASSR Ichki ishlar xalq komissari Akbar Islomov bilan birga sovetlarga qarshi kurash olib borganlikda ayblanib, 1933-yili NKVD “uchligi” tomonidan 5 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan.

Ahmadxonov Mahmudxon – 1896-yili Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. 1910-yilgacha jadid Salohiddin Majidovning yangi usul maktabida o‘qigan. 1915-1917-yillarda Qo‘qondagi taraqqiyparvarlar harakatida qatnashgan.

M.Ahmadxonov “Sho‘royi islom” jamiyati mas’ul kotibi, Turkiston muxtoriyatining faol himoyachisi bo‘lgan. 1919-yilda kompartiyaga qabul qilingan. Qo‘qon shahar va uyezdida revolyutsion komitet raisi, viloyat militsiyasi boshlig‘ining o‘rinbosari, Farg‘ona viloyati Xalq ta’limi boshqarmasi boshlig‘i lavozimlarida xizmat qilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining rahbarlaridan biri sifatida, Obidjon Mahmudov, Abbosxo‘ja Mahmudxo‘jayev, Miyon Qudrat Hazrat, Hamdamxo‘ja Qalandarov, Sadriddin Maxsum, Ashurali Zohiriy, Mirzohid Miroqilov bilan yaqin aloqada bo‘lganlikda ayblanib, O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 2-bandi va 67-moddalariga asosan 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan.

Salohiddin Muftiyzoda – 1886-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. Eski maktab va madrasada tahsil olgan. “Grammafon” jamiyatida faoliyat yuritgan. Sa’diyning “Guliston” asarini o‘zbekchaga tarjima qilgan. Ubaydulla qori Erqoziyev, Sa’dullaxo‘ja Tursunxo‘jayev davrasida bo‘lgan. “Ulamo jamiyati” va “Turon” jamiyati a’zosi. “Tahqiqsiz sadoqat” maqolasini “Najot” gazetasida e’lon qilgan. Turkiston muxtoriyati hukumati tarkibiga kirgan, muxtoriyat tugatilgach, bolsheviklar ta’qibidan Sibirga qochgan va ma’lum vaqt Tomsk shahrida yashagan. 1919-yili VKP(b)ga a’zo bo‘lgan, 1925-yilgacha sovet idoralarida ishlagan. 1921-yili “Milliy ittihod” tashkilotiga kirgan va uning faollaridan biri sanalgan. Turkiston davriy matbuotida muntazam qatnashgan. 1932-yil 25-noyabrda O‘zSSR davlat kino boshqarmasida ishlab turgan paytda qamoqqa olingan. O‘zSSR Jinoyat kodeksining 57–10, 58–10-moddalari bilan sovet davlatiga qarshi targ‘ibot olib borganlikda ayblangan. 1933-yili 4-mayda unga qo‘yilgan otuv hukmi 10 yil qamoq jazosiga almashtirilgan. 1992-yil 16-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi S.Muftiyzodani oqlagan.

To‘rabekov Turobbek – 1898-yili Zominning Achchiq qishlog‘ida tug‘ilgan. Eski maktabda, rus-tuzem maktabida ta’lim olgan. 1917-yil fevralgacha tilmoch, inqilobdan so‘ng Qoratosh ijroqo‘mi raisi, Jizzax shahar militsiyasi rahbari bo‘lib ishlagan. Ammo sovetlarning bosqinchilik siyosatidan nafratlanib, istiqlolchilar tomoniga o‘tgan. 1934-yil 14-oktyabrda otuvga hukm etilgan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor,
Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda).

TABDIL

Fitratning adabiy faoliyatini sharaflagan, pyesalarini qadrlagan shaxslar 20-yillar adabiy jarayonida oz emas edi. O‘z davrida o‘zbek dramalari va teatrining ahvoli haqida Vadud Mahmud maxsus maqolalar yozdi. “Chin sevish” shulardan biri. Muallifning fikricha, teatrda madaniy hordiq chiqarish uchun shart-sharoit qoniqarli darajada emas, kelgan kishi undan kayfiyati tushkun bo‘lib chiqib ketadi. Bunga “Chin sevish” aybdormi? Yo‘q! Uni kuchsiz pyesa deb bo‘ladimi? Yo‘q! Unday bo‘lsa gap nimada? Sababi ne? Hamma gap – tizginni o‘z qo‘llarida tutib qolgan kelgindi boshqaruvchilarning mahalliy xalq madaniy turmushiga ola qarashida, hukumat tomonidan zarur miqdordagi mablag‘ va asbob-uskunalar bilan yaxshi ta’minlanmagan teatrning tang ahvoldaligida. Vadud Mahmud asarning obro‘si tushib ketishini sira-sira xohlamaydi, teatrdagi sahnalashtirish bilan bog‘liq o‘sha nuqsonlarning tuzalib ketishini esa dil-dildan istaydi.

Vadud Mahmudning “Chin sevish”ga bag‘ishlab yozilgan maqolasi “Qizil bayroq” gazetasining 1921-yil 22-sentyabr sonida bosilgan edi.

TAHRIRIYAT

“CHIN SEVISH”

O‘zbek sahnalarida shu kungacha o‘ynalib kelgan pyesalarning eng kuchlisi, eng buyugi o‘tkur yozuvchimiz Fitratning hind turmushidan olib yozgan “Chin sevish” pyesasi ekanligini hamma iqror etsa kerak. Sahnamizda bir necha martaba borliq ko‘rsatgan bu besh pardali pyesa 17-sentyabrda yozliq “Turon” sahnasida o‘zbek davlat truppasi tomonidan yana o‘ynaldi.

Boshlang‘on ishning kundan-kun tuzalib, yaxshilanib borishi qonun kabi bo‘lsa-da, bizning hamma ishlarimiz kundan kun buzilib, yomon yo‘lg‘a kirib boradir. Shu kabi teatru ishlarimizning ham ancha ortga chekinganligini bu kun o‘ynalg‘on “Chin sevish”dagi hollar ochiq ko‘rsatadir.

Burun soat yettida ochiladir, deyilgan parda sakkizda ochilsa, hozir soat sakkiz-o‘n bo‘lmasdan ochilmayturg‘on; parda oralari esa, yana uzayg‘on. Demak bunda ham keyinga qarab taraqqiy etgan. Hozirgi teatrularg‘a bormoqchi bo‘lg‘onlarg‘a ko‘rpa-yostiqlarini-da ko‘tarib borish kerak bo‘lib qolgan. Chunki tongga yaqin chirog‘lar o‘chib qolg‘onda, bitaturg‘on o‘yinning parda oralarida uxlab olinsa bo‘ladir; quruq o‘runduqlarda parda ochilishini kutub, uxlovchilarning tanlari qiynalmaydir.

Bu kabi hollar shu kunlarda o‘ynalib turg‘on teatrularimizning har birida bo‘lib turadir. Pyesalarning so‘ng pardalari, tangri yorlaqab, o‘ynalib qolsa, yuzga yetar-yetmas kishi qoladir.

Hollar bunday yomon bo‘lg‘och, “qilay desa ishi yo‘q, yotay desa kasali yo‘q” kishilardan boshqa kim teatrug‘a kelsun?

Endi 17-sentyabrda o‘ynalg‘on “Chin sevish” pyesasiga kelaylik:

Tomoshachi o‘rtacha edi. Ovrupoliklarning teatrusida o‘ynalib bitaturg‘on choqda, parda ochildi. Kutishdan usag‘on xalq tinchlandi. Bukun mas’uliyatli ro‘llarni ado etuvchilarning ko‘pi ilgari ham shu ro‘llarda o‘ynag‘on artistlar bo‘lsa-da, ilgarigi o‘ynashlaridan yaxshi o‘ynay olmadilar...

So‘nggi parda o‘ynalib turg‘onda, chirog‘ o‘chib qoldi. Chunki vaqt kech bo‘lib qolg‘on edi. Suflyor chaqmoq (zajigalka) tutib so‘z bera boshlab davom etmakchi bo‘ldilar. Sahnadan zal yorug‘ bo‘ldi. Artistlarning aftlari, harakatlari sira ko‘runmas edi. “Chirog‘ topib o‘ynalsun” degan tovush xalq orasida ko‘tarilgandan keyin pardani tushurdilar. Shu vaqtda chirog‘ topuv mumkin emasligi belgili edi. Ilg‘ori chirog‘ tayyorlab qo‘yilmaganligini ham chirog‘ topa olmag‘onligini bildirib afv



so‘radilar. Bunday quruq afvdan nima foyda?

“Teatru o‘ynamoqchi bo‘lg‘onlar hamma narsani tayyor qilg‘ondan so‘ng o‘ynasunlar, xalq bilan o‘ynashmasunlar” degan tovushlar yuksalib, xalq so‘ka-so‘ka tarqalishdilar...

Shuning uchun bunday oliy pyesalarni buzib o‘ynashdan saqlanuv kerak.


Bu asarlar to‘g‘risida kelgusida ko‘b narsalar yozilib, yuqori o‘run beriluviga ishonaman.

Vadud MAHMUD

B.NURMUHAMMAD
nashrga tayyorladi.

TILBILIM

ESKI O‘ZBEK TILI OBIDALARIDA MO‘G‘ULCHA SO‘ZLAR



Ko‘p asrlar mobaynida turkiy va mo‘g‘ul xalqlari ajdodlarining o‘zaro tinch va harbiy aloqada bo‘lishi natijasida turkiy tillar leksikasida mo‘g‘ulcha so‘zlar (va aksincha) yoki ikki til uchun umumiy hisoblangan leksik qatlam bunyodga keldi. Mo‘g‘ulcha leksik birliklar turkiy tillarga, shu jumladan, eski o‘zbek tiliga asosan XIII asrdan, ya’ni Chingizxon boshliq mo‘g‘ul istilochilarining Janubiy Sibir va O‘rta Osiyoni zabt etish vaqtidan boshlab kirib kela boshlagan.

Eski o‘zbek tilining ilk manbalaridan biri hisoblanmish “O‘g‘uznoma”da qayd etilgan jida – nayza, muran – daryo, choq// chog‘ – vaqt, uran – parol, no‘kar – jangchi, navkar, qurultoy – xalq yig‘ini, shira – stol kabi so‘zlarning mo‘g‘ul tiliga xosligini professor A.M.Shcherban ta’kidlab o‘tgan edi.

Eski o‘zbek tili obidalari tilida ishlatilgan mo‘g‘ulcha o‘zlashtirmalarning ko‘pchiligini harbiy ish, ma’muriy lavozim va chorvachilikka oid terminlar tashkil etadi. O‘zbek tili yodnomalarida uchraydigan mo‘g‘ulcha o‘zlashmalarni bir necha tematik guruhlarga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Masalan: harbiy unvon va ma’muriy lavozim, qurol-yarog‘, qism nomlari va hokazo. Mazkur leksik-semantik guruhlarga kiruvchi terminlar ichida so‘z yasovchi -(v)ul va -l affikslari yordamida yasalgan terminlar alohida e’tiborga loyiqdir. Ma’lumki, birinchi affiks borasida sovet va chet el turkologlarining mushtarak fikrlari mavjud bo‘lmay, bir guruh tilshunoslar -(v)ul ni turkiy tillarga xos affiks, deb fikr yuritsalar, boshqa bir guruh olimlar uni mo‘g‘ul tilidan o‘zlashtirilgan affiks deb hisoblaydilar. Bizning fikrimizcha, -(v)ul turkiy va mo‘g‘ul tillari uchun umumiy affiks bo‘lib xizmat qilgan. XI-XIII asr mo‘g‘ul tilida juda sermahsul bo‘lgan mazkur ot yasovchi affiks turkiy tillarda ancha passiv qo‘llanishda bo‘lgan. XIV-XV asrga kelib -(v)ul yordamida bakavul – oshpaz, chapavul – otliqlar to‘dasi, yortavul – otliq otryad kabi talaygina so‘zlar yasalganki, ular eski o‘zbek tili manbalarida o‘z aksini topgan. Nemis olimi Gerxard Dyorfer, chig‘atoy (eski o‘zbek) tiliga mo‘g‘ul tilidan birgina -(v)ul affiksi yordamida yasalgan yuzdan ortiq so‘z o‘zlashtirilganini ta’kidlab o‘tadi.

Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida -(v)ul affiksi yordamida yasalgan so‘zlar harbiy unvon va saroy lavozimlarini anglatishini e’tirof etgan. Shig‘avul mo‘g‘ulcha *sigaul* so‘zining o‘zlashtirilgan formasi bo‘lib, temuriylar va shayboniylar davrida xon yoki podshoh saroyida o‘tkazib turiladigan qabul marosimlarini boshqarib va nazorat qilib turuvchi katta amaldorni bildirgan. Uning zimmasiga asosan xon yoki podshoh qabuliga elchilarni olib kirish vazifasi yuklangan. Bu so‘zni olmoniyalik olim Gerxard Dyorfer mo‘g‘ulcha siga – rioya qilmoq yoki siqa – ezmoq, siqmoq fe’llaridan yasalgan bo‘lsa kerak, degan fikrni bildiradi. M.Ryasyanen ham termin siqa – ezmoq, siqmoq fe’lidan yasalgan, degan qarorga keladi. Ma’lumki, eski turkiy yodnomalarda suyurqa – in’om, ehson qilmoq: xursand etmoq va suyurqa – hamdard bo‘lmoq fe’llari qayd etilgan. G.Dyorfen eski turkiy tildagi bu so‘zlarni xitoycha si – “chuqur muhabbat, o‘zidan kichikka bo‘lgan muhabbat” so‘ziga -rqa va mo‘g‘ulcha -l affiksini qo‘shishdan yasalgan, degan qarorga keladi XIII-XV asrlarda suyurg‘al O‘rta Osiyo va Eronda yer egaligining o‘ziga xos turini – hukmdorning farzand, nabiralariga, shuningdek, saltanatning atoqli kishilariga in’om etiladigan yer-mulkni bildirgan.

Yasovul so‘zining o‘zagi umumturkiy va mo‘g‘ulcha yasa fe’lidan iborat bo‘lishiga qaramasdan, bu termin “yasovul, harbiy mansabdor” ma’nosida ilk bor mo‘g‘ul tilida ishlatilgan. Yasovullar saroy soqchilari bilan birga xon saroyiga kirayotgan va u yerdan chiqayotgan shaxslarni nazorat qilib turgan. Bu so‘z eski o‘zbek tili va boshqa qardosh turkiy tillarda keng iste’molda bo‘lgan. Mazkur termin chor armiyasida ham ishlatilgan. Qo‘qon xonligida yasovul “pristav, oliy mansabdorni kuzatib boruvchi harbiy” ma’nolarida qo‘llanilgan.

Eski o‘zbek tili obidalarida tez-tez uchrab turuvchi tavachi termini asosan Temur davridan boshlab iste’molda bo‘lgan. G.Dyorferning fikricha, qo‘shindagi eng yuksak harbiy mansablardan birini ifodalovchi tavachi termini eski o‘zbek tiliga 1250-1350-yillarda kirib kelgan. “Boburnoma”da tavachi “adyutant, harbiy inspektor” ma’nosida ishlatilgan.

Hamidulla DADABOYEV

HAJV

MANIM “PADKAS”IM

Landavurboy, shu desang, kamina kuchayadurg‘on, sanga o‘xshag‘on besh-olti kallakning keti lovullaydurg‘on bo‘lib turibdi. Sababi shulkim, kaminani Yutibida padkas degich bir azim muhorabag‘a, qonli mubohasag‘a chaqirdilar. Mana, bir hafta bo‘ldikim, naq qirq yetti marta ko‘rilibdi. San bo‘lsa yuribsan, o‘tganning o‘rog‘iga, ketganning ketmoniga kammintariy yozib.



Tarixi qandog‘ bo‘ldi, de? Mana bundog‘ bo‘ldi. Shanba kuni peshindan keyin uyda qorinni qashib, oyoqni antenna qilib yotg‘on edim. Padkasning kattasi shaxsan o‘zi sim urib, “Ovsarboy aka, keyingi sonda sizni mehmonga chaqirmoqchibiz, kelasizmi?” deb qoldi.

Bayt:

Arzon-garov shuhratingdan
atkaz qilolmay dog‘man,
Yakka tartibda o‘zim-o
padkas qilolmay dog‘man...

Maning muhtasham miyamda bir xirmon fikr uyulib yotg‘on bo‘lsa, yarmi zanglab, yarmi panglab qolg‘on bo‘lsa! Fikrlarg‘a ozodlik berib, alarni bir shabadalatmoq joiz emasmu? Axir maning ilmlarimdan xalq oziqlansin. Xuddi shundog‘ dedim-u, ertasi kuni man faqir kelishilg‘on soatda o‘shal padkasig‘a bordim. “Qancha savollaring bo‘lsa, beringlar, kamina bugun avtomatning o‘qiday tayyor”, dedim.

So‘zamol boshlovchi “Lets go‘v, Ovsar aka, to‘kning narxi nega oshib ketyapti?” deya birinchi savolni berdi. G‘alatimasmu? Man to‘kning kattasimidimki, bu savolga javob bersam. “Buni man qaydan bilay? O‘zim ham shundan dod bo‘lsam! Savolning egasi elektrosetda o‘tiribdiyov, o‘rtoq blogirlar”, dedim. “Sizda baribir munosabat bo‘lishi kerak-ku”, deyishdi. A, bu gap to‘g‘ri. Keyin bilganimcha sayray boshladim. “To‘k o‘lgir doim ko‘ngilni xufton, uyni zimiston qiladi. To‘ksiz dunyo – betartib dunyo. Xo‘sh, tejab ishlatg‘onning asakasi ketadimi? Ana, ko‘p yoqqon bo‘lsa, normadin u yog‘ini gumbura-qars to‘lab qo‘yaversin. Man faqirg‘a to‘k o‘chmay tursa, bas. Yoqqon to‘kimni haqini kredit olib bo‘lsa ham to‘layman”. Bu gaplarni aytishim bilan telfonimg‘a shart sms kelib turibdi-da. Nima emishki, shu oy dunyoning to‘kini yoqib qo‘yibman. Kapalagim uchib ketayozdi, to uni joyiga qaytarib ulgurmay, blogirlarning mahmadanarog‘i “To‘y-hashamlar haqida fikringiz qanaqa?” deb yana savolga tutib qoldi.

Bu savolga ne deb javob qilding, deysanmi, Landavur? Man aytdimki, “Kim nima desa desin-u azadan ko‘ra to‘y ancha yaxshi. To‘y bizning tugab qolmasligimiz uchun zarur, to‘g‘rimi? Demak, to‘y degan an’anani yo‘qotish avlodlarga xiyonat bilan teng. Hashamga esa hushim yo‘q, birovning dabdabasi bilan ishim yo‘q. Har kim qurbi yetganicha, bilgan ashulasini aytaversin, deyman. Lekin har narsada me’yor bo‘lgani ham durust. Bir kallaqand, uch so‘m pul bilan to‘y bo‘ladurg‘on zamonlar o‘tib ketdi. Topganing to‘yga buyursin, deb ota-buvalarimiz qarg‘ab ketgan bo‘lsa ne qilaylik? O‘rtag‘a karantin oralab, sal-pal epaqaga kelib qoluvdi, biroq virusni yengib olganimizdan keyin to‘ylarga qaytadan zo‘r berib boshladik. Mana, ikki devor naridagi qo‘shnimning topar-tutari yaxshi edi, hamma jon saqlash qayg‘usida yurg‘on mahal karantin qoidalarining ustig‘a iks tortib, besh yuz odamni besh mahalga bo‘lib-bo‘lib uyig‘a chaqirdi. To‘yda karantin mahal bekor qolgan artis zotining neki toifasi bo‘lsa, bari birrovga kelib ketdiyov. Kamina ham o‘tgan yil bir to‘yning harakatiga tushib qoldi-yu cho‘ntak bilan majlisdan keyin fikrimdan qaytdim. Hali yana besh yilcha yig‘im-terim qilmasak, xotin ikkov bor-budimizdan ayriladurg‘on ko‘rinamiz. Xullas, gapning po‘stkallasi, tilimda “dabdabali to‘ylarni to‘xtataylik”, deb og‘iz yirtsam ham, dilimdagini aytib qo‘ya qolay: qo‘lim kaltalik qilmaganda shunday to‘y qilardimki, hindiy milliarder Ambani sohib ham mening oldimda bir rupiya bo‘lib qolardi”.

Keyingi savol yanada dolzarb mavzuda bo‘ldi. “Sizning fikringizcha, bu yil Oskar mukofotini kim oladi?” deyishdi. Kamina umri davomida o‘zi sakkizta kino ko‘rgan bo‘lsa ham, bu savol mani dovdiratib qo‘ymadi, albatta. Kino haqida miyamning allaqaysi g‘ovaklarida chang bosib qolg‘on bilimlarim bor-ku. “Shu deyman, keyingi paytlarda kinolar juda bo‘sh ishlanyapti. Qahramonlarning harakati bejoligini aytmaysizlarmi? Aniq bir maqsad qolmayapti. Na Gollivudda, na Bollivudda. Shohrux Xonning qarib borayotg‘onini ko‘rishdan yurakbag‘rim ezilib ketyapti. Masalan, dunyo kinosig‘a insonlarg‘a ezgulik urug‘larini sochadurg‘on, qalblarga insoniylik niholini qadaydurg‘on muhtasham g‘oyalar yetishmayapti. Bizning kinochilar ham Oskar olish uchun ana shunaqa g‘oyalar haqida o‘ylashi kerak. Endi bu yil Oskar mukofotini kim olishig‘a keladurg‘on bo‘lsak, ochig‘ini aytay, kimg‘a nasib etg‘on bo‘lsa, o‘sha oladi”. Yigitlar fikrlarimg‘a qo‘shilishdi. Axir qo‘shilmay bo‘lurmu? Man sanag‘on kamchiliklarga ko‘z yumib bo‘lmaydi-ku.

O‘shal ikki soatlik padkasda dunyoning barcha global muammolarini yechishimiz lozim edi. Aqlim yetg‘onicha o‘tladim. Asosiysi, jim bo‘lib qolg‘onim, mum tishlab olg‘onim yo‘q. Butun padkas davomida sezib turdimki, yigitlar maning bilimlarimg‘a havas qilib, ich-ichida lol qolib, har bir gapimni jon qulog‘i bilan tinglab o‘tirdilar. Savol berishadi: “Oxirgi paytlarda asalarilar olayotgan asalda sifat o‘zgarishlari yuz berayotgan ekan. Buning sababi nima deb o‘ylaysiz?” Javob beraman: “Chunki tabiatda namgarchilik kamayib, changlanish ko‘payib ketdi. Forig‘ degan asalchi qo‘shnim bor, u menga ko‘p aytib berg‘on. Asalarilar asalni changdan olarmish. Demak, chang ko‘payib ketib, alarning ish grafiklari buzilg‘on. Hali moslashib olishsin, o‘shanda ko‘rasiz, sifat tag‘in joyig‘a tushadi”.

Shunday qilib, bir bog‘dan, bir tog‘dan suhbatlasharkanmiz, biz kirmag‘on ko‘-cha, biz mo‘ralamag‘on soha-yu tahlil qilmag‘on jabha qolmadi, hisob. Padkasni to‘liq aytib bersam, qizig‘i qolmas. Yaxshisi, Yutibig‘a kirib, qidiruv joyig‘a manim ismimni yozsang, o‘zi chiqib keladur. Ko‘rib bo‘lib, ikki og‘iz fikringni aytib qo‘yarsan. Endi mashhurlig‘im karrasig‘a oshg‘ay, lekin san sho‘rlikka qiyin bo‘lg‘ay, tushunaman. Havo sovitkichingni eng balandig‘a qo‘yib olaverasan. Hali yana Amirxonning shousig‘a chiqib, tiktokdag‘i beqiliq yoshlarg‘a dakki berib, yoshlikda faqat ilm olish haqida o‘ylash kerakligi-yu mutolaa bo‘yicha foydali layfhaklarimni alar bilan baham ko‘rib qolishim ham mumkin. Hushyor qaynab tur, Landavur, xo‘pmi?

OVSAR

Husan SODIQOV chizgan surat.

TARMOQLARDA NIMA GAP?

Qachon es kiradi bizga?

Yaqinda endigina ellikka kirgan yaxshi bir akani tuproqqa qo‘ydik. Ichagida yarasi bor ekan, shu ochilib ketibdi. Ammo bu odamni o‘ldiradigan dard emas. Har qalay, juda ilg‘or bo‘lmasa-da, meditsinamizning bunga aqli yetadi. Biroq marhum shifoxonaga bormagan.

– Nega shifoxonaga olib bormadingizlar? – dedim hayron bo‘lib.

Ayoli yerga qaraydi.

Bolalari onasiga xo‘mrayadi.

...Bir amallab masalaning tagiga yetdim.

Aka yaqinda nabirali bo‘libdi. To‘ng‘ich qizi o‘g‘illi bo‘lib, shunga beshik to‘yi olib borishi kerak ekan.

Beshik to‘yining xarajati katta emish. “Agar men kasalxonaga tushib qolsam, to‘y berolmay qolamiz”, deb ota sho‘rlik shifoxonaga bormagan va bir hafta davomida qon tuflab yuravergan.

– Bir necha marta aytdim, lekin har safar: “Qudalarning oldida uyatli bo‘lib qolamiz, qizingning ko‘ngli o‘ksiydi”, deb bormadilar, – deydi ayoli.

Xullas, shu odam o‘ldi. Bir tiyinga qimmat an’anani, bemavrid g‘ururni deb o‘lib ketdi.

Muhtaram yurtdoshlar, to‘ylar fojiasidan qachon qutulamiz?

Qachon es kiradi bizga? Biz qachon tonnalab guruch damlab to‘y qilishning fazilat emasligini anglab yetamiz?


Ajabo, bir asr ilgari Mahmudxo‘ja Behbudiy ham xuddi shunday nolib yozgan ekanlar. Oradan 100 yil o‘tibdi hamki, hamon o‘sha eski “qo‘shiq”!

Abdulloh ZIYO
Facebook

YANGI LUG‘AT

ATAMALAR SHARHI

KAPSLOK – kompyuter klaviaturasidagi alohida vazifa bajaruvchi tugmalardan biri. Ushbu tugma vositasida matndagi yozuvlar shakliga o‘zgartirish kiritish, ya’ni so‘zlarni katta harflar bilan yozish imkoni mavjud.



SKRINSHOT – ekransurat. U asosan telefon ekranidagi hamda kompyuter monitoridagi zarur ma’lumotlarni ayni damdagi ko‘rinishining rasm holatida muhrlangan nusxasidir.





MEDIA – kuchli ta’sir doirasiga ega, xabarlar va boshqa turdagi ma’lumotlar tarqatuvchi vosita. Uning tarkibiga internet nashrlari, tele va radiokanallar hamda gazeta-jurnallarni kiritish mumkin.



MAYNING – turli shakldagi elektron valyutalar, ya’ni bitkoin singari kriptovalyutani quvvatlantiradigan blokcheynda yangi yozuvlarni yaratish va tasdiqlash jarayoni.

Gazetxonlarimizda mazkur so‘zlarning o‘zbekcha muqobiliga taklif bo‘lsa, telegram orqali **@jadidgamurojaat_bot** manziliga yuborishlarini so‘raymiz.

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Mas’ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Muhayyo Pirnafasova

Sahifalovchi:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Kirill yozuvidagi adadi – 5 983
Lotin yozuvidagi adadi – 11 931
Media kuzatuvchilar – 17 201
Buyurtma: G – 740.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 00:55
Sotuvda narxi erkin.

jadid-media.uz